

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**  
**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**SAN`AT FAKULTETI**

**«Himoyaga tavsiya etilsin»  
Fakultet dekani  
K.Gulyamov\_\_\_\_\_  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2015y.**

**5140700 – Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi bakalavriyat  
ta`alim yo`nalishi**

**MO`MINOVA HILOLA DONIYOROVNANING**

**MILLIY SO`ZANA ISHTIROKIDAGI NATYURMORT  
KOMPOZITSIYASINI ISHLASH  
MAVZUSIDA  
KURS ISHI**

**Ilmiy rahbar:  
professor\_\_\_\_\_ B.Baymetov**

**«Himoyaga tavsiya etilsin»  
Tasviriy san`at va uni o`qitish  
metodikasi kafedrasi mudiri  
professor\_\_\_\_\_ B.Baymetov**

**TOSHKENT – 2015**

MUNDARIJA.....	2
KIRISH.....	3
I BOB. KASB HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN`AT ASOSLARINI O'RGATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	8
1.1. O'quvchilarga tasviriy san`atning rivojlanish bosqichlarini o'rgatish.....	8
1.2. Tasviriy san`atning O'zbekistonda rivojlanish tarixi.....	15
1.3. Kasb-hunar kollejlarida tasviriy san`atni o'qitishning mazmuni va didaktik printsiplari .....	27
II BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARIGA NATYURMORTNI TASVIRLASHGA O'RGATISH METODIKASI	43
2.1. O'quvchilarni natyurmort janrida ishlashga o'rgatishning metodik asoslari.....	41
2.2. Qalamtasvir tasviriy san`atda asos sifatida va uning natyurmortni amaliy bajarishdagi ahamiyati.....	51
III BOB. <b> MILLIY SO'ZANA ISHTIROKIDAGI 62 NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI ISHLASH MAVZUSIDA O'TKAZILGAN tajriba sinov ISHLARINING TAXLILI</b>	
3.1. Kasb hunar kollejlari o'quvchilariga rangtasvirda natyurmort kompozitsiyasini tasvirlashga o'rgatish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi.....	62
Xulosa.....	67
BMIdagi sohaga oid tayanch so'zlarning o'zbekcha - inglizcha lug`ati	69
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	70
Rasmlli ilovalar.....	72

**Mavzuning dolzarbligi.** 1997 yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Ta`lim to'g`risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"<sup>1</sup> yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda estetik tarbiyaning tarkibidagi tasviriy san`atning ahamiyatiga katta e`tibor qaratilgan. Zero, Prezident I.A.Karimov ta`kidlaganidek, "Hozirgi kunda milliy ma`naviyatimiz rivojini tasviriy san`at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi"<sup>2</sup>.

Ta`limning kasb-hunar ta`lim bosqichida o'quvchilarga tasviriy san`at asoslarini o'rgatishda uning mazmunini takomillashtirish tasviriy san`at o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Bunda juda ko'p narsa kasb-hunar ta`lim turi uchun bo'lajak tasviriy san`at o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliv o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni va uning mazmuniga bog`liqdir. Olib borilgan kuzatish natijlari shuni ko'rsatdiki, hozirda o'rta maxsus kasb-hunar ta`limi o'quvchilariga tasviriy san`atdan mashg`ulotlar o'tishda natyurmort kompozitsiyasi muhim o'rinni tutadi va mazkur ta`lim muassasalarida saboq berayotgan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, zamon talablari darajasidan ortda qolmasligini taqazo etadi.

Kasb hunar kollejlarida o'quvchilarni kasbiy tayyorgarligini ta`minlovchi tasviriy san`at turkumidagi barcha fanlar, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari dasturidan joy olgan natyurmortni bosqichlarda amaliy jihatdan ishlashni mukammal o'rgatish va amalyotga tatbiq qilish mazkur kasb egalarini kasbiy va pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashda muhim rol o'yndaydi. SHuning uchun ham bo'lajak tasviriy san`at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

**Muamoning o'rganilganlik darajasi.** Ma`lumki, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynovchi sub`ektlar sirasida o'qituvchi va uning roli yuqori qadrlangan. Bizning yurtmizda asrlar davomida o'qituvchi shaxsiga nisbatan alohida hurmat ko'rsatilgan. O'z navbatida, uning kasbiy tayyorgarligiga katta e`tibor berilgan va unga yuksak talablar qo'yilgan. Ana shunday talablar mohiyati ilk yozma manba sanaluvchi "Avesto", Islom dinining

<sup>1</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Тошкент: Шарқ, 1997.-20-29 б.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.—Т: “Маънавият”, 2008. – 176 б.

muqaddas manbalaridan biri bo'lgan "Hadis", shuningdek, ulug` mutafakkirlar – Abu Nasr al Forobiy, Aburayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslixiddin Sa`diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab allomalar tomonidan yaratilgan asarlar mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Uzluksiz pedagogik ta`lim tizimida o'qituvchi shaxsini kasbiy tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonida kasbiy madaniyatni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish, pedagogik turkum fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini tarbiyalash, shuningdek, pedagogik mahoratni qaror toptirish masalalari. BMI yuzasidan olib borilgan izlanishlar, adabiyotlarni o'rganish va tahlil etishdan shunday xulosaga keldikki, E.Kvyatkovskiy, T.Mahmudov, M.Ovsyannikov, V.Skatershikov, S.Fayzulina, S.SHermuhamedov kabi olimlar tomonidan san`at, madaniyat, nafosatning falsafiy, pedagogik jihatlari ishlab chiqilgan. Xalq amaliy san`atini o'qitishning psixologik jihatlari B.Ananev, M.G.Davletshin, E.Ignatev, B.Teplov, P.YAkobsonlarning asarlarida ham o'z aksini topgan. Tasviriy va amaliy san`atni darsda va darsdan tashqari mashg`ulotlarda o'qitish metodikasi Hamdo'stlik mamlakatlari va O'zbekiston olimlaridan A.Amanullaev, O.Arutyunyan, V.Kuzin, N.Rostovtsev, V.Strokov, N.Tolipov, Q.Qosimov, R.Hasanovlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Ta`lim tizimi uchun, xususan kasb hunar kollejlari uchun tasviriy san`at o'qituvchilarini tayyorlash muammolari bilan bog`liq bo'lgan texnologik yondashuvlar V.S.Kuzin, B.M.Nemenskiy, N.Oydinov, Z.N.Novlyanskaya, N.N.Rostovtsev, T.YA.SHikalova, B.P.YUsov kabilarning tadqiqotlarida o'rGANILGAN. Biroq, globallashuv jarayonida, bilim olish shakl va usullari yangi texnologiyalar bilan boyitilayotgan bir davrda yangi tadqiqotlar ko'proq qiziqish uyg`otadi.

**Kurs ishining maqsadi.** Kasb hunar kollejlarida o'quvchilariga natyurmortni ishlashga o'rgatish orqali o'quvchilarni kasbiy tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

### **Kurs ishining vazifalari:**

1. Kasb hunar kollejlarida o'quvchilariga natyurmortni ishlashga o'rgatish orqali ularni kasbiy tayyorlash jarayoni va ixtisoslik fanlarini o'qitilish holatini o'rganish va tahlil qilish.
2. Kasb hunar kollejlarida o'quvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.
3. Ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga natyurmortni bosqichlarda ishlashga o'rgatishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish.
4. Rangtasvir, qalamtasvir fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning ko'rsatkich va mezonlarini ishlab chiqish.
5. Kasb hunar kollejlarida ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasbiy tayyorlash bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rish.

### **Kurs ishining amaliy ahamiyati:**

rangtasvir, qalamtasvir fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga natyurmortni bosqichlarda ishlashga o'rgatish orqali bo'lajak tasviriy san`at mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning samarali shakl va metodlari ishlab chiqiladi hamda ilmiy jihatdan asoslanadi, tadqiqot mavzusi bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlanadi va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tayyorlanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha to'plangan tajribalar va olingan natijalar rangtasvir, qalamtasvir fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarga natyurmortni bosqichlarda ishlashga o'rgatishda hamda kasb-hunar kollejlarida foydalanish mumkin.

## I BOB. KASB HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN`AT ASOSLARINI O'RGATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. O'quvchilarga tasviriy san`atning rivojlanish bosqichlarini o'rgatish

Jahonda tasviriy san`atni o'qitilishiga dastlabki haqida ma`lumotlar etarli bo'lmasada, biroq qadimgi Misr va YUnionistonda eramizdan avvalgi 3-asrlarga doir materiallar xam mavjud. Qadimgi Misrda tog` qoyalariga o'yib ishlangan haykallar, shuningdek rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solmoqda. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi. Tasviriy san`atni o'qitishishi bilan odamlar qadimdan shug`ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan.<sup>3</sup> SHuni alohida qayd qilish lozimki, bunday san`at asarlari qanday shaklda bo'lismidan qat`iy nazar ularni maxsus maktablarsiz yaratib bo'lmaydi. Kishilar o'z tajribalarini keyingi avlodlarga turli yo'llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o'tkazib kelganlar desak yanglishmagan bo'lamic.

Tarixiy ma`lumotlarga qaraganda muktabni tugallab chiqayotgan yoshlari ma`lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog`ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bo'lislari talab etilgan. Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bolani rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, engil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qogozlarda bajarilgan.

Ayrim ma`lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi YUnionistondan ancha avval boshlangan. Italiyalik 15 asr me`mori, yozuvchisi va olimi Leon Alberti shunday deb yozadi: "Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishslash ularda YUnionistondan olti ming yil avval mavjud bo'lgan".<sup>4</sup>

Rasm chizishga o'rgatish qadimgi YUnionistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishslashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rGANISHGA, unda go'zalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan.

<sup>3</sup> Б.Байметов. Қаламтасвир. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. Тошкент, 2006.

<sup>4</sup> Леон Альберти Батиста. Рангтасвир хақида. 236 б.

Rasm ishslash uchun yog`och taxta ustiga asalari mo'mi surtilgan va uning ustini bo'yoq bilan sidirga bo'yagan. Rasm ana shu yuza ustiga o'tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto'g'ri chizilgan rasm qo'l bilan ishqalanib, chiziqlar o'rni to'ldirib o'chirilgan. So'ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Eramizdan avvalgi 432 yilda YUnion haykaltaroshi Poliklet inson tanasi a`zolari o'rtasidagi mutanosiblik, proportsionallikka doir namuna sifatida "Dorifor" haykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo'lмаган мактабларда о'ргатилди.<sup>5</sup>

YUnion rassomlari borliqni va turmushdagi go'zalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha go'zallik, ko'proq xushbichim, tartib, ritm va simmetriya, bo'laklar o'rtasidagi mutanosiblik, to'g'ri matematik munosabatlarda ifodalanadi. 4-rasm.

Keyinchalik YUnionistonda rasm ishlashning bir necha o'ziga xos mактаблари paydo bo'lган. Ular orasida tasviriy san`at va uni o'qitish taraqqiyotida ushbu maktablar katta rol o'ynagan. Bu maktabda o'qitish ishlari ilmiy asosda tashkil etilgan bo'lib, bolalar ko'proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.

Bu mактабни bitirganlar orasida Pamfildek mashhur rassomlar ham bo'lган. Pamfil rasm chizishning ta`limiyva tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib bergen. Bu haqda uning zamondoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: "Uning sa`yi harakati bilan avval Sikionda, so'ngra YUnionistonda hamma bolalarga rasm chizishni o'rgatish lozimligi belgilab qo'yilgan. Boshlangich ta`lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi.<sup>6</sup>

Uyg`onish davrida Italiya tasviriy san`ati va uni o'qitish metodi katta rol o'ynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta`lim beradigan o'quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan CHennino CHennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e`tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san`at o'rtasidagi aloqalar, proportsiya,

<sup>5</sup> Б.Байметов. Қаламтасвир. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. Тошкент, 2006.

<sup>6</sup> Б.Байметов. Қаламтасвир. Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. Тошкент, 2006

perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o'rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko'ra naturaga qarab rasm ishlash o'qitishning asosini tashkil etishi lozim hisoblangan.

Ayniqsa, Leonardo da Vinchi tasviriy san`atni o'qitish metodikasi taraqqiyotiga katta ta`sir ko'rsatgan. U o'zining "Rangtasvir to'g`risida kitob" nomli ishida rassomchilikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaradi. Olim va rassom ko'p yillar davomida anatomiya, rang, kishi a`zolari o'rtasidagi mutanosiblik qonuniyatlarini ishlab chiqqan.<sup>7</sup>

Tasviriy san`atni o'qitishni takomillashtirishda Uygonish davrining nemis rassomlaridan A.Dyurerning xizmatlari katta bo'ldi. U birinchi bo'lib rasm ishlashni engillashtirish uchun geometrik metodni o'ylab topdi. Uning fikricha har qanday buyum, qism va yuzalar asosida geometrik shakllar yotadi. SHuning uchun chizishda u yoki bu narsalarni tasvirlashda avval geometrik shakllar chizib olinishi lozim, keyin ular umumlashtirilib, haqiqiy tasvir hosil qilinadi. Keyinchalik uning bu metodi Dyupyui, Ashbe, CHistyakov kabilarning pedagogik faoliyatlarida keng qo'llanila boshlangan. Hozirgi kunlarda ham bu metod o'z kuchini yo'qotganicha yo'q.

Uyg`onish davri rassomlarining katta xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, ular tasviriy san`atda anatomiya, perspektiva, yorug` soyaning benihoya katta ahamiyatini asoslab berdilar. Natijada san`at asarlari o'zining yuksak badiyligi va realistikligi bilan tomoshabinlarni lol qoldiradigan bo'ldi. SHunga qaramasdan tasviriy san`atni o'qitish tizimini yaratish ularga nasib etmadi. Bu muammolar asosan 16 asrdan boshlab echila boshlagan. Bir qator akademiyalar tashkil etilishi ishni engillashtiradi. Bunday akademiyalar Florentsiya, Rim, Balon kabi shaharlarda ochildi. Avvalgi vaqtarda bunday maktablar xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, endi davlat va jamoalar ham bunga o'z ulushlarini qo'sha boshlagan edilar. Bu o'quv yurtlari orasida mashhur rassom, haykaltarosh va muallim aka-uka Karrachilar hamda uning amakivachchalari Agostino va Annibale tomonidan ochilgan badiiy Akademiya ko'proq iz qoldirdi.

---

<sup>7</sup> Леонардо да Винчи. Рангтасвир хакида. 236 б.

Ular yaratgan o'qitish tizimida o'quv materiallarini tez o'zlashtirish, o'quvchilarni ilmiy bilimlar, muntazam mashq, qonun-qoidalar asosida rasm ishslash malakalarni hosil qilish asosiy o'rinni egalladi.

Bu rassom-muallimlar o'zlaridan avval o'tgan rassomlarning tajribalari va yutuqlarini umumlashtirib, talabalarni shu asosda o'qitishga harakat qildilar. Ular o'z faoliyatlarida yorug` soya, kolorit, rang, konstruktsiya, anatomiya, perspektiva masalalariga alohida e`tibor berdilar. Ayrim tarixiy va san`atshunoslik ma'lumotlariga qaraganda Dyurerlar tomonidan bir qator nazariy va amaliy qo'llanmalar yaratilgan. Lekin ulardan ayrimlari saqlanib qolgan, xolos.

Akademik tizimga ko'ra jiddiy ilmiy bilimlarsiz rasm ishslashni o'rganib bo'lmaydi. Bolalar rasm chizish orqali borliqni bilib boradilar. Bu sifat har bir shaxs uchun, u qaysi sohaning mutaxassisini ekanligidan qat`iy nazar zarur deb hisoblandi.

Keyinchalik Baloniya akademiyasi ta`sirida Parijda, Venada, Berlinda, Madridda, Peterburgda, Londonda ana shunday akademiyalar ochildi.

Tasviriy san`atni hamma umumiyyat`lim mакtablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chek pedagogi YA.A.Komenskiy tomonidan uning "Buyuk didaktika" asarida rivojlantirildi.

Umumiyyat`lim tizimida rasm ishslashni takomillashtirishda frantsuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishslashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergen. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynda amalga oshirish samaralidir. CHunki, bolalar tabiat qo'ynda narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib etadilar.

Evropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiyyat`lim maktablarida alohida o'quv predmeti sifatida o'qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotschi, I.SHmidt va P. SHmidt (SHvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupuilar (Frantsiya) katta hissa qo'shdilar.

Maktablarida rasm ishslashda natural metoddan ko'ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotschi, P.SHmidt va I.SHmidt kabi pedagoglar yoqlab

chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'ldi. Naturaga asoslangan rasmchizishni ustunliklarini YA.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyoteler yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotsi, I.SHmidt va P.SHmidt, F.Dyupyuilar asoslashga harakat qildilar.<sup>8</sup>

Rasm chizishni o'qitish metodologiyasiga doir bir qator adabiyotlar nashr etila boshlandi. Bu borada Kulman, Parang, Elsner, Tedd kabilar jonbozlik ko'rsatdilar. Bular tomonidan yaratilgan adabiyotlarda rasm chizish qoidalari, uning metodikasida qarama-qarshi fikrlar bo'lsa-da, biroq natural metod borasida bunday qarama-qarshi fikrlar ro'y bermadi.<sup>9</sup>

20 asr boshlarida bolalar tasviriylar ijodi borasida biogenetik nazariya yuzaga keldi. Bu borada nemis olimi G.Kershenshteyner, rus san`atshunosi A.Bakushinskiy, amerikalik J.Dyupyuilar faollik ko'rsatdilar. Ularning fikriga qaraganda bolalar badiiy ijodiga aralashmaslik kerak. Ular erkin ijod qilishlari lozim. Ularning ijodiga aralashib ta`limni tezlashtirib bo'lmaydi. CHunki, har bir bola yoshiga mos ravishda avvaldan belgilab qo'yilgan bosqichlarni bosib o'tadi. Bu bosqichni o'tamasdan, ikkinchisini o'zlashtirib bo'lmaydi yoki ularning ijodiga aralashib, ularning fikrlari, his-tuyg`ularini o'zgartirish mumkin emas. SHuning uchun bolalarning ijodiga rahbarlik qilish, aralashish jinoyatdir deb yozdilar. Keyinchalik bu g`oya "Erkin tarbiya" nomini oldi.<sup>10</sup>

Rasm chizish Rossiya maktablarida umumiy talim o'quv predmeti sifatida XVIII asrning boshlarida paydo bo'ldi. Bu davrda rasm chizish Dengiz akademiyasi, xirurgiya maktabi, kadetlar mакtabida, fanlar akademiyasi qoshidagi gimnaziyada, qizlar tarbiya bilim yurtida o'qitilgan.

1934 yilda rus rassomi A. Sapojnikov birinchi bor umumiy talim maktablari uchun "Rasm chizish kursi" nomli darslikni yaratdi. Mazkur darslik naturaga qarab rasm chizishga asoslangan edi. Darslik realistik rasm ishlashasida qurilgan bo'lib, unda perspektiva, yorugsoya qonunlari ham o'z aksini topgan edi.

<sup>8</sup> Хасанов Р.Х. Мактабда тасвирий санъатни ўқитиши методикаси. Тошкент, 2006.

<sup>9</sup> Ростовцев Н.Н. Из истории методов обучения рисованию. М., Просвещение, 1986. 14 бет

<sup>10</sup> Ўша ерда. 18 бет.

SHu bilan bir qatorda Sapojnikov sim, karton, gips kabi materiallardan narsalar tuzilishi, perspektiv qisqarishi, xajmiga doir metodik ko'rgazmali quollar majmuasini ham yaratdi. Muallifning tavsiyalariga ko'ra har qanday natura asosiga turli hajmli va yuzali geometrik shakllar yotishi, shuning uchun ham rasm chizishda geometrik metoddan foydalanish maqsadga muvofiqligi bayon etilgan.

Rossiyada tasviriy san`atni umumiy ta`lim maktablarida o'qitilishiga doir yirik fundamental asar yaratganlardan biri G. A. Gippius bo'ldi. Uning "Ocherki teorii risovaniya kak obshego uchebnogo predmeta" nomli asarida o'sha davrdagi rasm chizishga o'rgatishdagi eng ilgor g`oyalar o'z aksini topgan edi.

Badiiy ta`lim va tarbiyadagi bu qarama-qarshi oqimlarning paydo bo'lishiga sobiq sovetlar hokimiyatining o'rnatilishi sabab bo'ldi. Ta`lim va tarbiyadagi bu nazariya keyinchalik xukmron bo'lgan sobiq bolsheviklar partiyasi tomonidan qattiq tanqid ostiga olindi hamda badiiy tarbiya kommunistik tarbiya vazifalarini ruyobga chiqarishga qaratildi.

Rossiyada rasm chizish metodikasini takomillashtirishda 1933 yilda tashkil topgan "Bolalar badiiy tarbiyasi markaziy uylari" muhim ahamiyat kasb etdi. Bu markaz faoliyati bilan bog`liq holda P.YA.Pavlinovning "Graficheskaya gramota", N.Radlovning "Risovanie s natury", "Sbornik zadaniy porisovaniyu", YA.Bashilov va E.Kondaxchanlarning "Detskiy risunok" va boshqa qo'llanmalari chop etildi.

Rossiyada, shuningdek, sobiq ittifoq Respublikalarida rasm chizishni rivojlanishida 1943 yilda tashkil topgan Rossiya pedagogika fanlari akademiyasi katta rol o'ynadi.

Keyinchalik bu akademiya asosida 1967 yilda sobiq sovet pedagogika fanlari Akademiyasi tashkil topib, uning tarkibida badiiy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti ochildi. Bu institut umumiy o'rta ta`lim maktablarida estetik tarbiyaga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borishda asosiy markaz bo'lib qoldi. Bu borada Rossiya Maorif vazirligi tasarrufida tashkil etilgan maktablar ilmiy-tadqiqot instituti va uning tasviriy san`atni o'qitishga oid laboratoriysi diqqatga sazovor ishlarni olib bordi.

Rossiyada 1925-50 yillarda keng tashviqot qilib kelingan Bakushinskiyning "Erkin tarbiya" nazariyasiga qarshi chiqib, ta`lim va tarbiyada

o'qituvchining katta rahbarlik faoliyatini qattiq turib himoya qildi. U "Erkin tarbiya" nazariyasi o'qituvchi rolini kamaytiruvchi va o'qitishda tartibsizlikni vujudga keltiruvchi "metod" deb o'z goyalarini asoslashga harakat qildi.<sup>11</sup>

20 asrning ikkinchi yarmida o'qitish metodikasiga doir qator ilmiytadqiqot ishlari olib borildi. Natijada, rasm chizish bo'yicha sinov darsliklari tayyorlanib, nashr etildi. Bu darsliklar V.V.Kolokolnikov S.A.Fyodorov, M.N.Semyonova, E.E.Rojkova, E.L.Xersonskaya, muallifligida tayyorlandi. Rossiya maktablarida ta`lim mazmunini isloh qilish borasida hukumat qarorlari asosida rasm chizish o'quv predmetini maqsad va vazifalari va ta`lim mazmuni bir necha bor qayta ko'rib chiqildi. Natijada, 1970 yilda "Rasm" o'quv predmetining nomi "Tasviriy san`at" deb o'zgartirildi. Bu nomda tayyorlangan dasturda estetik tarbiya vazifalari hamda rassomlar asarlarini o'rganilishiga doir Qismlar kengaytirilgan edi.<sup>12</sup>

Rossiyada 20 asrning ikkinchi yarmida "Tasviriy san`at" o'quv predmetini o'qitilishini yaxshilashda bir qator pedagog olim va metodistlar faollik ko'rsatdilar. Natijada "Risovanie" darsliklaridan tashqari ko'plab ilmiy-metodik va metodik adabiyotlar nashr etildi. Bunda G.V.Labunskaya, V.V.Alekseeva, V.S.SHerbakov, A.G. SHimanskaya, A.V.Karlson, G.I.Orlovskiy, R.I. Korguzalova, A.S. Brajnikova, N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, E.V.SHoroxov, T.YA. SHpikalova, B.P.YUsov kabilar samarali mehnat qildilar.

Rossiyada 1970 yillarga kelib umumiy o'rta ta`lim maktablarida tasviriy san`atni o'qitish mazmunini to'g'ri belgilash va uni takomillashtirish borasida bir qator olim va rassomlar guruhi paydo bo'ldi. Bulardan biri badiiy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti tasviriy san`at laboratoriyasining mudiri, professor B.P.YUsov, ikkinchisi Rossiya maktablar ilmiy-tadqiqot institutining tasviriy san`at laboratoriyasining mudiri, professor V.S.Kuzin, uchinchisi Sobiq Ittifoq rassomlar Uyushmasining kotibi, uyushma qoshidagi estetik tarbiya komissiyasining raisi rassom B.M.Nemenskiy edi.

<sup>11</sup> Р.Хасанов. Тасвирий санъат ўқитиши методикаси. Ўқув кўлланма.

<sup>12</sup> Ростовцев Н.Н. Из истории методов обучения рисованию. М., Просвещение, 1986. 23 бет

Ular mustaqil ravishda alohida-alohida olim va metodistlar guruhini tashkil etib, tasviriy san`atdan sinov dasturlarini yaratdilar.

Birinchi va uchinchi guruh olimlari tomonidan tuzilgan dastur "Tasviriy san`at va badiiy mehnat" deb nomlanib, u I-X sinflarda o'qitish uchun mo'ljallangan edi. B.P.YUsov rahbarligida tuzilgan dastur har bir sinfda bu o'quv predmetini ikki soatdan o'qitilishini nazarda tutgan edi.<sup>13</sup>

V.S.Kuzin rahbarligida tuzilgan dastur esa 1-7-sinflarda haftasiga 1 soatga mo'ljallangan edi. Bu dasturlar 1985 yillarga qadar Sobiq Ittifoqining o'ndan ortiq maktablarida sinovdan o'tkazildi. Bu dasturlar katta ijobjynatijalar bergenligiga qaramasdan amaliyotga joriy etilmadi. Biroq, undagi ayrim ilgor goyalar yangi tuzilgan dasturlarda o'z ifodasini topdi.<sup>14</sup>

Rossiyada 1970-2000 yillar davomida olib borilgan ishlar mazmuniturli-tuman bo'ldi. U estetik va badiiy tarbiyaga doir xalqaro, federatsiya miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish, ilmiy-metodikto'plamlar nashr etish, o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish yo'nalishlarida amalga oshirildi.

## **1.2. Tasviriy san`atning O'zbekistonda rivoqlanish tarixi**

O'zbek halqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me`morchilik san`atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. CHunki, Uzbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san`atning rangtasvir, haykaltoroshlik, me`morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Qalchayon, Tuproq qal`a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, K^o'yqirilgan qal`a, Ajina tepa, Teshik qal`a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1-asrlarda yaratilgan bo'lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiyligi hozirgizamon rassomlariva haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolaga bo'lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilgor tajriba, tasviriy san`at maktablarisiz yaratish mumkin emas.

---

<sup>13</sup> Р.Хасанов. Тасвирий санъат ўқитиши методикаси. Ўқув кўлланма.

<sup>14</sup> Кузин В. С. Основы обучения изобразительному искусству в школе- Москва: Просвещение, 1977.

Ma`lumki, san`at bir necha avlodning ko`p yillar davomida shakllangan an`analari, ustuning shogirga o`tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so`zsiz umumiyl badiiy ta`lim yo`nalishidabo`lmasa ham, kasbiy badiiy ta`lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma`lum davrlarda O`zbekiston xududidagi san`at taraqqiyotida uzilishlar ro`y berganligining sabablari, Iskanadar Zulqaynar, mo`gillar, arab, rus istilollariga borib taqladidi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san`atning miniatyura turini gullab-yashnagani ham buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat SHarq, hattoki Evropa mamalakatlari san`atiga ham o`z ta`sirini ko`rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bagdod, Tabriz, SHeroz, Ozarbayjon, Xind, Isfaxon, Turk miniatyura makatblari ham shakllandidi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta`lim yo`nalishida rivojlangan bo`lsa-da, lekin ulardan umumiyl ta`lim tizimidagi tasviriy san`atni o`qitishda bemalol foydalansa bo`ladi. Xususan, umumiyl o`rta ta`lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san`atshunoslik asoslari, rangtasvir va qalamtasvir ishslash, naturaga qarab tasvirlash, borliqni idrok etish bo`limlari mavjud bo`lib, kasbiy badiiy va umumiyl badiiy ta`lim tizimlari o`rtasiga qat`iy chegara qo`yib bo`lmaydi. Tasviriy san`atning nazariy asoslari hisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, ham umumiyl ta`lim tizimida o`rganiladi. Faqat tasviriy san`atni o`qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasiriy san`at tarixida buyuk naqqssh ka musavvir Kamoliddin Behzodga Xirotlik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o`rgatgani haqida ma`lumotlar bor. SHuningdek, ustoz Miroq naqqoshning Xirot "Nigoristoni" (San`at akademiyasi) bo`lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma`lum.<sup>15</sup>

---

<sup>15</sup> Н.Ойдинов. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавхалар. Тошкент, 1996 йил, Ўқитувчи

Professor Orif Usmonov o'zining "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi" nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtida nafis tasviriy san`at maktabini yaratganini qayd qiladi. U erda musavvir o'z atrofiga eng iste`dodli yoshlarni to`plagani, ularga san`atining sir-asrorlarini o'rgatgani va Tabrizda Sulton Muhammad, Mirzo Amir, Oqo Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Muhammad Nur, SHomuxammad Nishopuriy, YUsuf Mullo, Mir Ali, Rizo Abbosi, Mahmud Muzaxxib, Mavlono YOriy, Xasan Bagdodiy, Abdulla SHeroziy, Darvesh Muhammad, Mir Said Ali, Qosim Ali, singari o'nlab iste`dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san`at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma`lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta`lim tizimining paydo bo'lishi 20 asrning birinchi choragiga to'g`ri keladi. Rossiyada Oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta`sir ko`rsatadi. YAngi tuzum o'zini ko`rsatish maqsadida e`tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o'lklalariga e`tibor qaratdi. SHu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. SHulardan bir guruhi Sankt-Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shugullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta`limiga o'z e`tiborlarini Qaratdilar. Bu rassomlar Turkistonning yirik shaxarlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o'z asarlarining ko'rgazmalarini o'tkazdilar.

1924 yilda Toshkent tasviriy san`at muzeysi qossalida badiiy studiya ochildi. Unda M.Kupriyanov (Mashhur Kukrinikslar guruxidan), S.CHuykov, mahalliy yosh rassomlardan O'. Tansiqboevlar yoshlari bilan mashg`ulotlar olib bordilar. 1927 yilga kelib Toshkent va 1929 yilda O'zbekiston poytaxti hisoblangan Samarqandda badiiy bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtlariga ko'proq mahalliy yoshlari qabul qilindi. Bu bilim yurtlarining asosiy maqsadi rassomlar tayyorlash bo'lsa-da umumiyl o'rta ta`lim maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash borasida ham ma`lum rol o'ynadi.

SHu bilan birga ta`lim tizimida estetik va badiiy ta`lim masalalariga ham e`tibor qaratila boshlandi.

1918 yilda umumiy ta`lim maktablari uchun ishlab chiqilgan "Основные принципы единой трудовой школы" nomli asosiy hujjatda "Estetik ta`lim deganda qandaydir sodda bolalar san`atini o'qitilishini tushunmaslik lozim, u xissiyot organlari va ijodiy qobiliyatlarini muntazam rivojlantirib boradi va u go'zallikdan zavqlanish va ularni yaratuvchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu elementdan maxkum qilingan mehnat va ilmiy ta`lim jonsiz gavdaga o'xshab qiladi. CHunki hayotdagi zavq va ijod quvonchi mehnatning ham, ilmning ham yakuniy maqsadidir" deb yozilgan edi. Bu hujjat O'zbekiston maktablari uchun ham asos qilib olindi.<sup>16</sup>

Bolalar ijodi bilan shugullanayotgan ko'pchilik rassomlar bolalar ijodini ideallashtirdilar va Evropada keng tus olgan "Erkin ijod" deb ataluvchi tushukunlikka yuz tutgan nazariyadan kelib chiqqan Qarashlarni yoqladilar. Bu yo'nalihsdagi mutaxassislar pedagog faqat bola ijodini erkin rivojlantirishi va malakasini oshirishga yordam berishi lozim deb qaradilar. Mana shunday mutaxassislardan biri Peterburglik an`atshunos A.V.Bakushinskiy edi. U o'zining "Художественное творчество и воспитание" nomli kitobida badiiy tafakkur va badiiy ijodga to'liq erkinlik berish kerak, bolalarning badiiy didini, badiiy asarini "tuzatish", "qotillik hisoblanadi" deb yozdi. Bu fikr o'sha davr pedagogika nazariyasiga tamomila zid edi.<sup>17</sup>

Ma`lumki, jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan kishilarning psixologiyasi ham o'zgarib boradi. Kishilar, xususan, bolalar esa ularni o'rab olgan muhitda asosan ta`lim bilan tarbiyaning uyushgan qoldagi ta`sirida rivojlanadi. Asrlar davomida yigilgan o'zlarining tajriba bilim va malakalarini yoshlarga o'tkazadilar. Natijada yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, bilim va ijodiy qsbiliyatlarini o'stirish ko'p jihatdan tarbiyaning yo'nalihsiga bog`liq bo'ladi.

O'qituvchi yoki tarbiyachining ta`sir kuchini tan olmagan, bolalarni o'qituvchidan ajratib qo'ygan "Erkin ijod" nazariyasi yoshlarning badiiy tarbiyasiga ta`sir ko'rsatdi. Bu nazariya O'zbekistonda nashr etilgan dasturlarda va umumiy ta`lim va tarbiyaviy ishlarda o'z aksini topdi.

<sup>16</sup> Р.Хасанов. Тасвирий санъат ўқитиши методикаси. Ўқув қўлланма.

<sup>17</sup> Бакушинский А.В. Художественное творчество и воспитание., Москва, 1958 йил.

Natijada maktab dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Rasm darslarining asosini naturaga qarab rasm ishslash, mavzu asosida rasm ishslash, dekorativ rasm ishslash, san`at xaqida suhbat o'tkazish mashg`ulotlari tashkil etdi. Bu dasturlarda o'lkahshunoslik materiallari ko'p bo'lmasada, har qalay o'z aksini topdi, eng muhimi bu dasturda darsdagi o'qituvchining etakchilik roli katta ekanligi belgilab qo'yildi.

Mazkur nazariya yuzasidan Rossiyada xam, Evropada ham katta tortishuv va tanqidiy fikrlar bildirildi. U badiiy tarbiya sohasida ham salbiy, ham ijobiy rol o'ynadi. Uning salbiy tomoni bolalar ijodiga rahbarlikni inkor etilishi va pedagogika nazariyasiga zid yo'l tutilganligi edi.

Ijobiy tomoni esa ko'proq bolalar tasviriy ijodiga etiborni kuchaytirish, bolalar shaxsiga xurmat va muhabbat bilan munosabatda bo'lish, pedagogik hamkorlikka yo'naltirilgan mustaqillik va ijodni ro'yobga chiqarish bilan belgilanadi.

1924 yilga kelib maktab o'quv rejalarida rasm darslari o'z o'rnini topmagan bo'lsa-da ayrim rassomlar bolalar tasviriy ijodini rivojlantirishga harakat qildilar. Ana shunday iqtidorli yosh grafik rassomlardan biri Iskandar Ikromov edi. U 1925 yilda "Maorif va O'qituvchi", keyin "Alanga" jurnallarida rasm chizishga doir maqolalar elon qildi. 1932 yilga kelib uning "Rasm chizishni o'rganish qo'llanmasi", 1933 yilda esa "Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi" albomi nashr etildi. 1935 yilda rassomning "Harf yozishni o'rgan" kitobi ham chop etildi. Bu maqola va kitoblar yagona mehnat va politexnika maktablari talablari asosida yaratilgan "Rasm" predmeti dasturlariga mos edi. Mazkur ishlar faqat umumiy ta`lim maktablari uchungina emas, balki tasviriy sa`nat studiyalari, klublar, havaskorlik to'garaklari, grafikani mustaqil o'rganuvchilar uchun ham ahamiyatli bo'ldi.<sup>18</sup>

1920 yilgi o'quv rejalarida san`atga doir o'quv predmetlariga tegishli o'rinnajratilmagan bo'lsa-da, 1929 yilga kelib bu kamchilik bartaraf etila boshlandi. Maktablarda maxsus rasm o'quv predmetlari o'qitila boshlandi. Lekin O'zbekiston maktablari Rossiya maktablari uchun yaratilgan dasturlar asosida ishlay boshladi.

---

<sup>18</sup> Xasanov P.X. Maktabda tasviriy san'yatni ўқитиши методикаси. Тошкент,2006.

Bu dasturlar ma`lum miqdorda O`zbekiston sharoitiga moslab lokalizatsiyalashgan edi. SHu munosabat bilan O`zbekiston xalq morifi kommisarligi tegishli joylarga yuborilgan xatida shunday deyilgan edi: "Majmuaning maqsadi unga tegishli material mazmuni, majmua bilan ishlash metodlari lokalizatsiya qilinadi. O'qituvchi oldindan o'lkashunoslik materiallarini to'plab olgan holda, o'z tumani hayotiga oid eng xarakterli jihatlarni dasturga kiritadi".

SHu munosabat bilan boshlang`ich sinf "Rasm va loy bilan ishlash" dasturiga o'lka materiallari krita boshlandi. Ular tevarak-atrof tabitatiga doir narsalar, O`zbekiston halq amaliy san`atiga doir materiallar edi.

Ta`sviri san`at predmeti metodikasi shakllanishida 1934 yilda Toshkentda, keyinchalik Respublikamizning har bir viloyat markazlarida tashkil etilgan "Markaziy badiiy tarbiya uylari" katta rol o'ynadi. Bu tarbiya uylari o'quvchilarni badiiy jihatdan tarbiyalashga oid dasturiy va metodik materiallarni ishlab chiqdi.

Badiiy tarbiya uylarida boshqa sho''ba bilan bir qatorda tasviriy san`at sho''basi ham bo'lib, unda uch yillik tasviriy san`at studiyasi ham tashkil etilgan edi.

Bu badiiy tarbiya uyidagi ikkinchi sho''ba bolalar rasmlarining ko'rigini tashkil etish bilan shug`ullangan. Uchinchi sho''ba esa nihoyatda serqirrali bo'lib, uning asosiy vazifasi bolalar bilan rasm darslarida isholib boruvchilarga metodik yordlam ko'rsatish hisoblanardi. SHuningdek, bu sho''ba qO'yidagi ishlarni ham olib borgan:

- tasviriy san`at studiyalari uchun mashg`ulotlar dasturini ishlab chiqish;
- maktabtasvirisan`at to'garaklari uchun mashg`ulot mavzularini ishlab chiqish;
- rasm darslarining mazmuni va mavzularini ishlab chiqish;
- rasm darslarining ahvolini o'rganish va o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish;
- shahar maktablarining rasm o'qituvchilari uchun seminar tashkil etish;
- Respublika viloyatlaridan kelgan o'qituvchilar va to'garak rahbarlari uchun

seminarlar tashkil etish va ularga tegishli yordam ko'rsatish.

1936 yildan boshlab Respublika miqyosida yuzaga kelgan sobiq pioner uyi va saroylari ta`lim-tarbiya, ommaviy-badiiy, texnikaviy, tabiatshunoslik kabi bir qator ish shakllarini o'zida mujassamlashtirgan muassasa ekanligini ko'rsatdi. Natijada, badiiy tarbiya uylarining vazifalari ana shu pioner uylari va saroylariga olib berildi. Pioner uyi va saroylarining soni yildan-yilga oshib borib, sifat jihatdan yangi mazmun kashf eta boshladи.

Respublikamiz uchun tayyorlangan va nashr etilgan dasturlar mazmuni va vazifasi jihatidan Rossiya maktablari uchun tayyorlangan dasturdan deyarli farq qilmagan, lekin uning hamma bo'limlarida mahalliy sharoit va materiallar ma'lum miqdorda hisobga olingan edi. Xususan, narsaga qarab rasm chizish darslarida Respublikamizga xos bo'lgan predmetlar va tabiat mahsulotlari, dekorativ ishlar bo'limida o'zbek amaliy san`at namunalarini chizdirish tavsiya etilgan edi.

1953 yilda nashr etilgan dastur "Rasm solish" deb nomlanib u o'quvchilarni tarbiyalashda katta rol o'ynashi ta`kidlangan bo'lsa, 1956 yilda nashr etilgan "Rasm" dasturida esa bu predmetning vazifasi o'quvchilarni estetik jixatdan tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladigan va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradigan o'quv predmetlaridan biridir deb ko'rsatildi. 1958-59 o'quv yiliga kelib, o'quv rejasida rasm chizishga ajratilgan soatlar oshdi va u 1-6 sinflarda qaftasiga 1 soatdan o'qitila boshlandi.

Umuman olganda, 50-yillarda Respublika hukumati tomonidan maktablarda rasm predmetining o'qitilishiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Bu avvolo maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlashda o'z aksini topdi. Ma'lumki, maktabda badiiy ta`limni rivojlantirish ko'p jihatdan pedagogik kadrlar tayyorlashga bog`liq edi. 1950 yillarda bu masala bilan Samarkand va Toshkent badiiy bilim yurtlarini birlashtirishnatijasida tashkil topgan P.P. Benkov nomidagi badiiy bilim yurti shurullana boshladи. Bu badiiy bilim yurti xalq xo'jaligini, xususan umumta`lim maktablarini k»qori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondira olmasa-da, maktablarda rasm o'quv predmetlarning o'qitilishini sifat jihatidan yaxshilashga ma'lum mikdorda ta`sir ko'rsatdi. Bu ta`sir maktablar bilan bir qatorda, maktabdan tashqari olib boriladigan seminar, konferentsiya,

yig`ilishlarda ham o`z ifodasini topdi. SHuningdek, badiiy bilim yurtini bitiribchi quvchilar maktablarda tashkil etilgan ko`rgazmalarda ham ishtirok etdilar.

Tasviriy san`atning o`qitilishini takomillashtirishda 1955 yilda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan badiiy-grafika fakulteti katta rol o`ynadi. Mazkur fakultetda kunduzgi, kechki va sirtqi bo`limlar orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlana boshlandi. SHuniham qayd qilish lozimki, mazkur fakultetda dastlabki yillarda kadrlarni kasbiy tayyorgarligi ancha yuqori bo`lib, o`sha yillar bu fakultetda mashg`ulotlarni Respublikamizning yirik rassomlari olib bordilar. Masalan, O`zbekiston halq rassomi A.Abdullaev, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan rassomlar YU.Elizarov, M.Saidov, A.Yurovskiy, T.Oganesov, shuningdek Leningrad badiiy akademiyasini va Moskva badiiy institutini yangigina bitirib kelgan yoshlekin talantli rassomlar R. Choriev, N. Kovinina va boshqalar shular jumlasidandir.

1964-70 yillarda kadrlar tayyorlash boshqa yo`nalishlarda amalga oshirildi. Bu davrda boshlangich sinf metodikasi fakultetlarida "Boshlang`ich sinf va tasviriy san`at o`qituvchisi" mutaxassisligi bo`yicha kadrlar tayyorlandi. Bunday yo`nalishlardagi mutaxassislar Toshkent, Urganch, Qarshi, Namangan pedagogika institutlarida tayyorlandi. Keyinchalik bu yo`nalish o`zini oqlamagach, yana Toshkent va Buxoro pedagogika institutlarida badiiy- grafika fakultetlari ochildi.<sup>19</sup>

1970 yilda tasviriy san`at va chizmachilik o`qituvchisi mutaxassisligi bo`yicha Toshkent va Buxoro pedagogika institutlari bilan bir qatorda Andijon, Kattaqo`rgon, Samarqand, Angor, Xiva, Xo`jayli, SHahrixon pedagogika bilim yurtlarida ham kadrlar tayyorlana boshlandi.

1980 yil boshlarida tasviriy san`at o`qituvchisi ixtisosligi bo`yicha yiliga tayyorlangan kadrlar soni 800 kishidan ortdi. Bu faqat O`zbekiston umumiyl o`rta ta`lim maktablarining tasviriy san`at o`qituvchilariga bo`lgan ehtiyojlarini yaqin yillarda qidirish mumkinligini bildirar edi.

---

<sup>19</sup> Б.Байметов. Каламтасвир. Олий ўкув юртлари талабалари учун дарслик. Тошкент, 2006

Yana shu narsani ham quvonch bilan ta`kidlab o'tish lozimki, Pedagogika fanlari institutining estetik tarbiya bo'limi 1970 yildan boshlab muntazam ravishda maqolalar to'plamini nashr eta boshladi. Bu to'plam bo'lim ilmiy xodimlari, tadqiqotchi-aspirantlarning ishlaridan tashkil topgan bo'lib, ularda tasviriy san`atni o'qitishga katta o'rinni ajratilgan edi.

1970-yilga kelib tasviriy san`at o'qituvchilarining ish tajribalari ko'zga ko'rina boshladi va ularning faoliyatlari ancha faollashdi. Tasviriy san`at o'qituvchilarining mahoratini oshirish va ilg`or pedagogik tajribalarni tashviqot qilishda Respublika miqyosida o'tkazilayotgan seminar va konferentsiyalar katta rol o'yndi.

O'zbekiston vazirlar mahkamasining 1966 yil 31 dekabr qaroriga muvofiq, O'zbekiston Vazirilar kengashining 1967 yil 22 martidagi farmoyishi asosida O'zbekiston maktablaridagi ta`lim mazmunini aniqlash bo'yicha komissiyalar tuzildi. Boshqa fanlar qatori maktablarda tasviriy san`at bo'yicha ham komissiya ishladi. Bu komissiyaga maktab o'qituvchilari, xalq maorifining xodimlari, metodist, ilmiy xodim, rassom, san`atshunoslar jalb etildi.

"Tasviriy san`at" deb nomlangan yangi dastur loyihasi shu vaqtgacha amalda qo'llanib kelingan "Rasm" predmeti asosida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida yaratildi.<sup>20</sup>

1980 yilning aprelida Toshkentda "O'quvchi yoshlar badiiy tarbiyasininig ahvoli va uni yaxshilash choralari haqida" deb nomlangan seminar, kengash o'tkazilishi mazkur qarorni bajarishdagi dastlabki Qadam bo'ldi. Mazkur tadbirni Maorif vazirligining tarbiyaviy ishlar bo'limi, rassomlar uyushmasibilan hamkorlikda o'tkazdi. Kengashda 400 dan ortiq o'qituvchi, tarbiyachi, halq maorif xodimlari, ilmiy xodimlar ishtirok etdi, yuzdan ortiq ma`ruzalar tinglandi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1981 yil martida sobiq ittifoq rassomlar uyushmasining tashabbus asosida Toshkentda navbatdan tashqari "Uquvchi yoshlarni badiiy-estetik

---

<sup>20</sup> Р.Хасанов. Тасвирий санъат ўқитиши методикаси. Ўқув кўлланма.

tarbiyalashning vazifalari" mavzusida Butunittifoq ilmiy-amaliy konferentsiya bo'lib o'tdi.

1981 yil O'zbekiston maorif vazirligi T.N.Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot inisitutiga tasviriy san`atdan yangi dastur loyihasini ishlab chiqishni topshirdi.

O'zbekistonda "Tasviriy san`at" yangi dasturlari tayyorlandi va unda quydagilarga rioya qilindi:

1.O'zbekiston tasviriy va amaliy san`atlari, adabiyot va musiqa asarlaridan o'rinni foydalanish.

2.O'zbekiston tabiati, tabiat mahsulotlari, turmushda qo'llaniladigan narsalardan keng foydalanish.

3.O'zbekiston ko'p millatli Respublika ekanligini hisobga olganholda baynalminal tarbiyaga ko'proq e'tibor berish.

4.Materiallar tanlashda O'zbekiston maktablari o'qituvchilarining bilim darajalari past ekanligini hisobga olish.

5.O'zbekiston maktablari o'qituvchilari badiiy qiziqishilarini hisobga olish.

### **Mustaqillik yillarida tasviriy san`atning o'qitilishi**

Mustaqilikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta`limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. SHu maqsadda 1992 iyulda "Ta`lim tugrisida" gi qonun e`lon qilindi. Bu xujyatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb qaraldi.

Natijada umumiy o'rta ta`lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori "Umumta`lim maktablarida tasviriy san`at ta`limi kontseptsiyasi" ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta`limi vazirligi kollegiyasining 5 may 1993 yilgi qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur kontseptsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi:

- mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lган zamonaviy talablar;
- ta`lim-tarbiyani milliy madaniyat va san`at asosida amalga oshirishni kuchaytirish;

- ta`lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston SHarq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta`lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish;
- maktabdagagi badiiy ta`limni amalga oshirishdabolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish;
- maktabda bolalarni tasviriy san`atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta`limni joriy etish;
- O'zbekiston maktablarida tasviriy san`at ta`limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish.

Bu g`oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san`atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'naliishlari bayon etildi.

Kontseptsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san`atdan davlat ta`lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. YAngi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo'lib, u tasviriy san`at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, ta`lim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o'z ifodasini topdi. Tasviriy san`at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun o'quv-metodik adabiyotlar ham tayyorlandi. YAngi dasturlar asosida tasviriy san`at darsliklarini yaratish muammosi paydo bo'ldi.

R.Hasanovning fakultativ mashg`ulotlar uchun "Tasviriy san`at" (1989), "O'qituvchining o'zi ustida mustaqil ishlash dasturi"(1993), "Tasviriy san`at darsliklarini yaratish mezonlari" (1994), O.Xudoyorovaning "O'zbekiston maktablarida tasviriy san`atni o'qitish tarixidan" (1993), B.Boymetov va N. Tolipovlarning " Maktabda tasviriy san`at to'garagi" (1995) nomli risollari ham amaliyotchilarga etkazildi.<sup>21</sup>

O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining "San`at va chizmachilikni o'qitish nazariyasi va metodikasi" bo'limida "O'quvchilarni

---

<sup>21</sup> Xasanov R.X.Мактабда тасвирий санъатни ўқитиши методикаси.2007 йил. 59 б.

tasviriy san`atdan mustaqil ishlari", "Tasviriy san`atdan sinfdan tashqari ishlar metodikasi"ga oid tadqiqotlar ham olib borildi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qeiui va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hujjatlarining e`lon qilinishi katta tarixiy vokea bo'ldi. U amaldagi ta`lim tizimidan tubdan farq qiluvchi yangi tizim bo'lib, unda ta`lim sohasini 1997-2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasи va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da estetik turkumdagи fanlarni o'qitishiga alohida e`tibor berilgan bo'lib, xususan uning "Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari" Qismida uzluksiz ta`limning faoliyat ko'rsatish printsiplaridan biri ta`limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta`lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma`naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi.

Ushbu hujjatda dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida barcha fanlardan davlat ta`lim standartlarini yaratish va amaliyotga joriy etish belgilab berildi. Barcha fanlar qatori "Tasviriy san`at" o'quv predmetidan ta`limning davlat standarti ham tayyorlandi. Mazkur standartda o'quvchilarni tasviriy san`atdan o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim va malakalar belgilab berilgan edi. Unda tasviriy san`at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko'rsatmalar ham bayon etilgan bo'lib, tasviriy san`at mashg`ulotlarining turlari sifatida borliqni idrok etish, badiiy qurish-yasash, naturaga qarab tasvirlash, san`atshunoslik asoslari, kompozitsiya bo'limlari qayd qilindi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tasviriy san`atni o'qitishni takomillashtirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilib, yaxshi natijalarga erishildi. Bu tadqiqotlarning natijalari dissertatsiya shaklida himoya qilindi. Ular R.Hasanovning 1994 yilda "O'zbekistonda badiiy ta`lim va tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari" mavzusida doktorlik, A.Turdalievning 1996 yilda "Tasviriy san`at darslari va darsdan tashqari mashg`ulotlar jarayonida o'quvchilarni badiiy kasb-hunarlargacha yo'llash", O.Xudoyorovaning 1997 yilda

"O'zbekiston umumta`lim maktablarida tasviriy san`at o'qitilishining shakllanishi va taraqqiyoti" mavzularidagi nomzodlik dissertatsiyalaridir.<sup>22</sup>

Mustaqillik yillarda tasviriy san`at o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e`tibor berila boshlandi. Xususan, 2002 yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo`limlar faoliyat ko`rsata boshladi. Tasviriy san`at o'qituvchilari Xiva, Denov, SHahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo'rgon, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi.

### **1.3. Kasb-hunar kollejlarida tasviriy san`atni o'qitishning mazmuni va didaktik printsiplari**

Kasb hunar kollejlarining tasviriy san`at darslarini didaktik printsiplarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Faqat amaliyot bilan nazariyani uzviy bog`lagan holdagina dars va darsdan tashqari ishlarda ta`lim va tarbiyaning samarali bo`lishiga erishish mumkin. Didaktik printsiplar va ularning asosiy masalalari Evropaning buyuk pedagog-olimlari YA.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G. Pestalotsilar tomonidan ishlab chiqilgan. SHuningdek, didaktik printsiplarni ishlab chiqishda F.A.Disterveg va K.D.Ushinskiylar ham katta hissa qo'shganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan goya hozirgi zamon didaktikasining asosini tashkil etadi.<sup>23</sup>

Didaktik printsiplar hisoblangan ta`lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik, ilmiylik, onglilik va faollik, muntazamlik va ketma-ketlilik, ta`lim mazmunini bolalarning kuchi va yoshiga mos bo`lishi maktabda tasviriy san`atni o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san`atni o'qitishda didaktik printsipler professorlar N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, R.Hasanovlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Ta`lim va tarbiya birligi printsipi didaktik printsiplarning eng asosiyalaridan hisoblanadi va bu tasviriy san`atni o'qitish jarayonida alohida

---

<sup>22</sup> Хасанов Р.Х.Мактабда тасвирий санъатни ўқитиши методикаси.2007 йил. 59 б.

<sup>23</sup> Никонорова Н.М. Наглядные пособия и оборудование для занятий изобразительным искусством. - Москва: Просвещение, 1975.

ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, bugungi kunda ta`lim-tarbiyaning asosiy qismlaridan biri o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasini ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

O'.Tansiqboevning "Jonajon o'lka", X.Rahmonovning "May tongi", N.Karaxanning "Oltin kuz", Z.Inog`omovning "CHoyga", YU.Elizarovning "Natyurmot" kabi asarlarida O'zbekiston ko'rak-jamoli yorqin aks ettirilgan.

O'quvchilarni bunday asarlar bilan tanishtirishda bolalarda ona-vatanimizga bo'lgan ilk muhabbat paydo bo'ladi, shu zaylda ularda ona-vatanga, o'lkaza nisbatan mehr-muhabbat tuygulari yanada kuchayadi.

Tasviriy san`at darslarida millatlararo totuvlik va baynalminal tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlari ham katta va u turli mavzularda kompozitsiya ishlash, boshqa millat va xalqlar hayotini ifodalovchi suratlarning reproduktsiyalarini, xalq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalarini namoyish etish orqali amalga oshiriladi.

"Mehmonlarimiz", "CHet el delegatsiyasini kutib olish", "Turistlar" mavzularida rasm chizdirish yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlarda o'quvchilar ongiga millatlararo totuvlik, do'stlik tushunchalarini singdirishga harakat qilinadi. Asar mazmunini ochishga yordamlashuvchi suhbatlar, turli millat va xalqlarning qiyofalarini tasavvur etish, bolalar ijodining takomillashuviga, tasavvurlarining boyishiga olib keladi.

Tasviriy san`at darslarida millatlararo do'stlik, totuvlik Respublikamiz va chet el rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orqali ham amalga oshirildi. Respublikamiz rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar orasida o'zbek xalqining hayoti va mehnati, uning boshqa xalqlar va millatlar bilan totuvligi, ba`zi chet xalqlarining hayoti va mehnati aks ettirilgan suratlarni ko'rish mumkin.

P.P.Benkov ("Dugonalar"), A.Abdullaev ("SHomahmudovlar oilasi"), L.Abdullaev ("Demobilizatsiya qilinganlarni kutib olish"), Husniddinxo'jaev ("Navoiy va Jomiy"), A.TSigmintsev ("Mening uyim, sizning ham uyingiz"), O'.Tansiqboev ("Issiqko'l oqshomi") va boshqalarning bir qator asarlari millatlararo totuvlik, do'stlik g`oyalarini aks ettirganligi bilan ajralib turadi. SHuningdek, tasviriy san`at dasturiga bir qator SHarq va G`arb mamlakatlari

rassomlarining ijodini o'rganish ham kiritilgan. Leonardo da Vinci, Rafael, Mikelanjelo, Rembrant, Rubens, Kent, Pikasso, Anri Matiss<sup>24</sup> va boshqa chet el rassomlarining asarlari do'stlik va hamkorlik roylarini amalga oshirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, dasturda Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, YAponiya kabi mamlakatlarning me`morchiligini o'rgatish ham nazarda tutilgan. O'qituvchi bunday san`at asarlarini tahlil qilar ekan, ularning o'ziga xos xamda umumiy belgilarini ta`kidlab o'tishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilar tasviriy san`at asarlarini o'rganish orqali chet el mamlakatlari xalqlarining mehati va mehnatdagi jasoratlari, an`analari, odatlari, turmush tarzi hamda tabiat bilan oshno bo'ladilar.

Jamiyat qurilishining muaffaqiyati har bir kishining mehnat qilish darajasiga bog`liq. SHuning uchun kishilarning jamiyat uchun nafi bo'lgan mehnatga nisbatan hatti-harakati asosiy ko'rsatkich sanaladi. Bu sifat mehnat tarbiyasi jarayonida vujudga keladi.

Tasviriy san`at darslarini o'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari katta. Bu masala tasviriy san`at darslarining barcha turlari-naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san`atshunoslik asoslari mashg`ulotlari mazmunida ko'zda tutilgan.

Naturani o'ziga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridanoldin naturani qisqacha taxlil qilib, faqat buyumlar shakli, proportsiyasi, rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta mehnat haqida ham gapirib beradi.

Masalan, natyurmort janrida ayrim san`at buyumlarining o'ziga qarab rasmini chizdirishda o'qituvchi o'quvchilarga buyumlarning vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan yasalgani, buning uchun qancha mehnat sarflangani va hokazolar haqida to'xtaladi. SHuningdek, o'zbek xalq amaliy san`ati bumlaridan tuzilgan natyurmortlarni tasvirlash darslarida o'qituvchi

<sup>24</sup> Бакушинский АВ. Художественное творчество и воспитание. Исследование и статьи. - Москва: Сов. художник, 1981.

ularning turlari va ustalarning mehnat shijoatining o'ziga xos jihatlari haqida gapiradi. "Paxta terimi", "Fermada", "Hosilni yig`ib-terib olish", "Maktab er uchastkasida", "Qurilishda" kabi ishlar o'quvchilarni kattalar mehnati bilan tanishtiradi. Ishlab chiqarish korxonalariga qilingan sayohat bu masalada muhim ahamiyat kasb etadi. Sayohatda bolalar kishilarining qanday mehnat qilayotganlarini kuzatadilar, mehnat sharoitlari va uni tashkil etish yo'llari bilan tanishadilar, kattalar mexnatining natijalarini ko'radilar. Sayohat chogida ular kattalar mehnatining ahloqiy tomonini, ularning mexnatga bo'lgan munosabatini, mehnatning jamoaviy harakterini o'rghanadilar. Bolalarni sayohat jarayonida olgan taassurotlari ularning rasmlarida aks etadi, natijada o'quvchilarning mexnat haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi.

Tasviriy san`at estetik turkumdag'i o'quv predmeti xisoblanib, o'quvchilarda badiiy va estetik didning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ya`ni tasviriy san`at darslarida san`atdagi va borliqdagi go'zallikni ko'rish, tushunishva qadrlay olish hissi takomillashadi.

Naturani tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini buyumlar shaklining nafisligi, qismlarning proportionalligi, shakl va rang uyg`unligi, mazmun, shakl va vazifaning mosligi kabilarga jalb etadi. Natijada, o'quvchilarda naturaga nisbatan emotsional - estetik munosabatlar oshadi.

Ilmiylik printsipi tasviriy san`at o'qituvchilaridan dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarga berilayotgan barcha material va ma'lumotlar ilmiy bo'lishligini, maktab amaliyotida tekshirilgan hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishligini talab etadi.

Tasviriy san`atni o'qitishda san`atning inson hayotidagi rolini tushuna bilish juda muhimdir. Jumladan, san`at ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini nazarda tutish kerak. Tasviriy san`at o'qituvchisi shuni tushunishi kerakki, o'quvchilar borliqdagi narsalarni chizish jarayonida ularning faqat tashqi ko'rini-shinigina emas, balki uning ma'lum qonuniyatlariga asoslangan ichki tuzilishni ham bilib olishlari talab etiladi. Ko'p hollarda bu qonuniyatlarni bilmaydigan o'quvchilar buyumlarning shaklini to'g'ri tasvirlashda yanglishadilar.

Ko'rgazmalilik printsipi tasviriy san`atni o'qitishda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'maklashadi.

Naturani o'rganish chog`ida (sinfda va plenerda) o'quvchilarning kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi.

O'qituvchida har doim ham o'rganilayotgan ob`ektni ko'rsatish imkonini bo'lavermaydi, bunday hollarda unga ko'rgazmalilik yordam beradi. Bu esa o'quvchilarda mazkur sohaga bo'lgan qiziqishni jonlantiradi.

O'quvchi naturadan rasm chizish jarayonida doim izlanadi, shakllarni solishtiradi, naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, rangi kabilarni bilib oladi. SHubhasiz, bularning hammasi o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, bolalarda fikrlash konkretlikdan abstraktlikka borish jarayonida rivojlanadi. Tushuncha va obstrakt qoidalar ma'lum dalil, misol va obrazlar bilan mustahkamlangandagina o'quvchilar ongiga oson etib boradi.

Ko'rgazmalilik tasviriy san`at darslarida boshqa o'quv predmetlaridagidek yordamchi emas, balki o'quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy materialdir.

Naturaning o'ziga qarab rasm chizish darslarida uni naturasiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu o'rinda tasviriy san`at darslarida ko'rgazmalilik printsipining roli juda katta.

Darslar uchun ko'rgazmali qursllar tayyorlash va tanlashda ularga quyidagicha talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalariga mosligi.
2. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi.
3. Ko'rgazmaning aniqligi, tushunarli bo'lishi.
4. Tasvirning sifatli bo'lishi.
5. Ko'rgazmalar o'zining rang-barangligi bilan o'quvchilarda zavq va qiziqish uygotishi.
6. Estetik talablarga mosligi.

Rasmlar, asarlarining reproduktsiyalari, badiiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalarni tanlashda quyidagilar e`tiborga olinishi kerak:

1. Materiallarning g`oyaviyligi.
2. Badiyliги.
3. Tasviriy san`at darslarining o`quv-tarbiya vazifalariga mosligi.
4. Bolalar idrokiga mosligi.

Ko`rgazmalilikdan o`rinli, maqsadga muvofiq ravishda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini e`tiborga olgan holda foydalanilsa, u yaxshi natijalar berishi mumkin.

Ko`rgazmalilikning ikki turi mavjud:

1. Tabiiy ko`rgazmali qurollar.
2. Tasviriy ko`rgazmali qurollar.

Tabiiy ko`rgazmali qurollarga shakli, rangi, tuzilishi tabiiy bo`lgan buyumlar(meva va sabzavotlar, turmush buyumlari, o`quv qurollari, amaliy san`at buyumlari va h.k.)ni kiritish mumkin.

Tasviriy ko`rgazmali qurollarga rasmlar, tablitsalar, hayvon va qushlarning tulumlari, suratlarning reproduktsiyalari, geometrik gipsli shakllar, pedagogik rasmlar, fotografiya va boshqa sun`iy usul bilan tayyorlangan tasviriy vositalar kiradi. Sanab o`tilgan ko`rgazmali qurollar quyidagicha guruhlanadi:

1. Mehnat va turmush buyumlari. Bu guruhga geometrik shakllar, sabzovotlar, mevalar, qushlar, hayvonlar, gullar va o`simliklar, amaliy san`at buyumlari.
2. Buyumlarning tuzilishi, perspektiva qonunlari, yorug`-soya, rangshunoslik, dekorativ stilizatsiyaga doir, geometrik shakldagi simdan yasalgan modellar, videoiskatel va boshqa ko`rgazmalar.
3. Rasmlar va tablitsalar. Unda rasm va naqsh chizishdagi ketma-ketlilik, atrof-muhitning perspektiv ko`rinishlari, amaliy san`at asarlarining tasvirlari.
4. Rassomlar asarlarining reproduktsiyalari, amaliy san`at asarlarining tasvirlari. Bunday ko`rgazmali qurollar yordamida yorug-soya va rangshunoslik, kompozitsiya qonunlari tushunitiriladi.
5. Bolalarga naturani chizishda ketma-ketlilikni, har xil eksponatlar bilan

ishlash uslubini, buyumlarning qurilishini, tasvirlanayotgan predmetlar va ob`ektlarning fazoviy holatini ko`rsatuvchi pedagogik rasmlar va boshqalar.

6. Namoyish qilinadigan ko`rgazmali qurollar (diapozitivlar, diafilmlar, slaydalar, kinofilmlar). Bular orqali o'quvchilar turli rassomlar, xalq amaliy san`ati ustalari bilan, tasviriy san`at asarlarini yaratish texnikasi va texnologiyasi bilan tanishadilar.

Har qanday turdag'i narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, kompozitsiya, san`atshunoslik asoslari darslarida va sinfdan tashqari ishlarda ko`rgazmalilik o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tasviriy san`atni o'qitish metodikasiga doir ko`rgazmali qurollar etarli bo'limgan hollarda ularni o'qituvchilarning o'zlari tayyorlashlariga to'g'ri keladi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, hamma ko`rgazmali qurollar ham foydali bo'lavermaydi, ba`zan ayrim ko`rgazmali qurellar o'quv va tarbiyaviy ishlarga salbiy ta'sir ko`rsatishi ham mumkin.

O'qituvchi ko`rgazmali qurolardan foydalanish me`yorini bilgandagina u ijobiy natijaga erishishi mumkin. Ko`rgazmali materiallarning haddan tashqari ko'p bo'lisligi o'quvchilar diqqatini asosiy masaladan chalgitadi va natijada asosiy narsa e'tibordan chetda qolishi mumkin. Ko`rgazmalilikning etarli bo'lmasligi esa o'qituvchi tomonidan fikrni chala va yuzaki bo'lisliga olib keladi.

Ko`rgazmali quroldan foydalanish masalalari o'qituvchining nutqi bilan ham bog`liq. Nutq va ko`rgazmalilikning uygunligi ikki jihatdan foydali bo'lishi ish joyda ko'rindi. CHunonchi, birinchidan, o'qituvchining nutqi ko`rgazmalilikka ko'maklashsa, ikkinchidan ko`rgazmalilik o'qituvchi nutqiga ko'maklashadi.

Tasviriy san`atni o'qitishda, ayniqsa narsaning o'ziga qarab rasm ishslash va san`atshunoslik asoslari darslarida ikkinchi yo'l ko'proq qo'llaniladi.

Agar ko`rgazmalilikning birinchi yo'li bilim, qonun tushunchalarni o'zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi yo'li pedagogga bu qonun-qoidalarni, atrof-muhitdagi hodisalarini isbotlashda o'qituvchiga ko'maklashadi. O'qituvchining so'zi sinfda zaruriy muhit hosil qilishda, o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini

oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun o'qituvchining nutqi ravon, tushunarli va ma`noli bo'lishi lozim.

O'qitishning ongli bo'lishi va o'quvchilarning bilish faolligi printsipi o'quv jarayonining o'stiruvchi va tarbiyalovchi rolini oshirishga olib keladi. Onglilik printsipining ahamiyati fan, texnika va madaniyat gurkirab rivojlangan hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu printsip o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni ongli, tushungan holda o'zlashtirishni bildiradi. O'quvchilar bu bilimlarni ko'r-ko'rona emas, balki berilayotgan tushuncha ma'lumotlarni ma`no mohiyatini anglab etgandagina uning bilimlari chuqur va mustahkam bo'ladi va u bolalar xotirasida uzoq saqlanadi. Bunga erishish uchun o'quvchilarning faolligi diqqati va mustaqil ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'ziga qarab rasm chizish darslarida naturani sinchiklab o'rganish ularning tuzilishi, hajmi, shakli, o'lchov va ranglaridagi xarakterli xususiyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Masalan o'quvchi:

- san`atni kishilar hayotidagi ahamiyatini tushunib etishi;
- kompozitsiya ishlaganda uning qonun va qoidalariga rioya qilishi;
- naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, ranglariga qat`iy rioya qilishi;
- har qanday narsa asosida u yoki bu geometrik shakl yotishi;
- rasm chizganda ufq chizigini chizib olish va yagona ko'rish nuqtasiga rioya qilishi.

Tasviriy san`at asarlariga oid materiallarning ongli o'zlashtirilishi ilmiylik printsipidagidek perspektiva, rangshunoslik, optika va yorugsoya qonunlari, anatomiyadan ba`zi ma'lumotlarga ega bo'lishi bilan bog`liq. Bu qonunlarni egallamasdan turib, o'quvchilar o'z tasviriy faoliyatilarini to'g'ri amalga oshira olmaydilar.

Faraz qilaylik, o'quvchi uyida chizish uchun geometrik shakldagi turmush buyumlaridan natyurmot qo'ydi. U perspektiva qonunlari, ufq chizigi, kuzatish nuqtasi, buyum va surat tekisligi, kesishish nuqtasi, narsalarning o'lchovlarini perspektiv qisqarishini bilmay turib o'z oldiga qo'ygan maqsadini

to'g'ri hal qila olmaydi. YOrug'soya qonunlari hisoblangan tabiiy va sun`iy yoritish, tushuvchi va shaxsiy soya, nutura yoritilganida soyalarning joylashuvi, yorugsoya, yarimsoya, blik, refleks va boshqalarning bilmagan o'quvchi buyumlarning hajmini to'g'ri tasvirlay olmaydi.

O'qitishning samaradorligi ko'p hollarda o'quvchilarning uydagi va darsdagi faolligiga bog`liq. Bu faollik xilma-xil bo'lishi kerak. Topshiriq yuzasidan mavzuni belgilashda o'quvchilarning hayvonlar, qushlar, sportga bo'lган katta qiziqish uyg`otishini hisobga olish lozim bo'ladi.

O'quv jarayonini samarali bo'lishida solishtirish, taqqoslash, naturani kuzatish va tahlil qilishning ahamiyati katta. Natura tahlilini savol-javob shaklida o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi, aks holda o'quvchilar naturani yuzaki o'rganish bilan cheklanib qolishlari mumkin.

Buyumlarni to'g'ri chizish uchun ularning tuzilishi, shaklini to'g'ri belgilash bilan birga fazoviy holatini to'la tasavvur etish kerak bo'ladi. SHundagina predmetlar rasmini ishlashga o'tish mumkin.

O'quvchilardan tasviriy san`atga oid atamalarni ongli o'zlashtirishlarini talab etilishi va ularni buzib ishlatilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Rasm chizish jarayonida o'quvchilarning ba`zi atamalarni o'zlashtirib olishlarini o'zi etarli emas, ularga atamalarning kelib chiqishi, ahamiyati haqida ma'lumotlar berish kerak bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga ilmiy tushunchalarini, atamalarni to'g'ri ishlatishlariga yordam beradi.

O'quvchilar hodisalarining bir-biri bilan o'zaro bog`liqligini tushunishlari juda muhim. Iodisalarni o'rganishda ularning rivojlanishini nazarda tutgan holda qarama-qarshilikning sababalrini ham tushuntira olishlari kerak bo'ladi.

O'quvchilarning faolligini oshirishda maqsadga muvofiq yo'naltirilgan muommoli vazifalarni qo'llash katta yordam beradi. Tadqiqot natijalari va o'qituvchilarning ishlari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san`atni o'qitishda o'zlashtirib bo'lingan bilim va malakalar ularni faqat tiklashgagini emas, balki

yangi materiallarni chuqur anglashga, dunyoqarashga doir xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli o'qitish bilan boglanadi. Muammolivaziyatlar hosil qilishesa mantiqiy vazifalarni echishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmet va hodislardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, ko'p dalillar ichidan tipiklarini ko'rsata olish, shakllangan tushunchalardan to'g'ri foydalanish, perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qoidalariga rioya qilish imkonini beradi.

O'quvchilar ufq chizigi, chiziqli va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak.

Dialektik tarzda fikr yuritish formal, mantiqiy fikrlash bilan bog`liq va unga doimo tayanishni nazarda tutadi. Mantiqiy fikrlash ob`ektiv borliq hodisalar mantiqini aks ettiradi. Caysiki, unda hamma narsa o'zaro bog`liq va aloqadordir.

O'qitishda o'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo'lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash lozim. O'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bevosita o'quvchilarning faol psixik faoliyati (intellektuallik, emotSIONALLIK) bilan bog`liqdir. Bunda g`oyalarni chuqur tushunish kamlik qiladi. Lekin, shunday amaliy faoliyat tashkil qilish lozimki, unda goyalar ichki hissiyotlar tufayli to'la ongli ravishdaharakat orqali yaqqol namoyon bo'lsin, mustahkamlansin. Bunga badiiy asarlarni ifodali o'qish, hikoya qilish, muzika tinglash, slaydlar ko'rsatish orqali erishish mumkin. Agar o'qituvchi voqeа va hodisalarni ta`riflashda ularning go'zalligi, nafisligi, yoqimliligiga alohida e'tibor bersa, talay natijalarga erishishi mumkin. SHuningdek, buyumlarning shakllari, o'lchovlaridagi proportsionallik, yorugsoya nisbatlari va boshqalarni san`at asarlari orqali tahlil qilib berish lozim.

O'quvchilarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ragbatlantirish x,am muhim ahamiyatga ega. YAxshi ishlarni butun sinfga ko'rsatish yoki ularni maktab ko'rgazmasiga tavsiya etish, o'z kuchiga ishontirish, ob`ektiv tanqid, turli xildagi yordamlar orqali o'quvchilarni ragbatlantirish mumkin.

O'qituvchining tajriba va bilimi kuchli o'quvchining mustaqil faoliyatiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalarga ishora, yordamchi savol, ish yo'nalishi va kamchiliklarini ko'rsatish orqali yordam berish kerak.

Boshqa fanlarda bo'lganidek, tasviriy san`at darslarida ham materiallarni muntazam va ketma-ket bayon etish printsipi muhim ahamiyatga ega. Bu printsip butun kurs davomida o'quv materiallarini mantiqan izchil joylashishini va har bir mavzu oldindan olingan bilim, malaka va tajribalarga suyangan holda, yangi materiallarni o'tilganlar bilan boglab bayon etilishi lozimligini nazarda tutadi.

Tasviriy san`atdan davlat ta`lim standarti materiallarni bayon etishning faqat ma`lum ketma-ketlikda amalga oshirishnigina emas, balki uning muntazam bo'lishligini ham nazarda tutadi.

Ba`zan shunday hollar ham bo'ladiki, bunda o'qituvchilar bilim berishning bu muhim printsipini to'g'ri baholay olmaydilar. O'quvchilarga berilayotgan vazifalarda bolalarning ilgari olgan bilim va malakalari hisobga olinmaydi. Natijada ular berilgan vazifani uddalay olmaydilar. SHuning uchun ish rejalarini shunday tuzish kerakki, o'quvchilar har bir darsda yangidan yangi masalalarni hal etsinlar. Lekin, yangi materiallarni o'quvchilar o'tilgan materiallarni o'zlashtiribva mustahkamlab olganlaridan so'nggina berish lozimligini hisobga olish lozim.

Masalaga bunday yondashilganda materiallarni bayon etishda parallelizm va qaytarilishlarga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, pedagog taqvimiylar yillik mavzularni rejalashtirganda o'quvchilarning rangshunoslikdan oladigan bilimlari quyidagicha ketma-ketlikda bo'lishi mumkin: asosiy va hosila ranglar,

hosila ranglarni hosil qilish, ranglar kontrastligi, qonunlari, iliq va sovuq ranglar, atrof-muhitni ranglar ta`sirida o`zgarishi, murakkab hosila ranglar, rang va yoruglik, buyumlar rangini uning foni bilan aloqasi, havo perspektivasi va boshqalar.

Nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog`liqligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariya bilan amaliyatning bog`liqligi bolalarning tasviriy faoliyatida, dars jarayonida, to`garak mashg`ulotlarida, jamoa ishlarida, ya`ni devoriy gazetalar chiqarish, albom bezash va shu kabilar orqali amalga oshiriladi. SHuningdek, tasviriy san`at janrlari yuzasidan nazariy mashg`ulotlardan so`ng ana shu janrlarda amaliy mashg`ulotlarni o`tkazilishi, o`tilganlarni mustahkamlash, yangisini oson o`zlashtirish imkonini beradi.

SHuni alohida ta`kidlash kerakki, ayrim o`qituvchilar Kasb hunar kollejlarida dasturga amal qilmay mashg`ulotlar o`tishlari kuzatiladi. YA`ni ular topshiriqlarni 1 kursda ham, 2 kursda ham o`tiladigan mavzulari va vazifalardan deyarli farq qilmaydi. Bulardan tashqari, o`quvchilarga doskaga chizilgan tayyor shakldan nusha ko`chirish tavsiya etiladi. Bundan, ular beriladigan topshiriqlarning bolalarga oson bo`lishilagini nazarda tutadilar. Lekin, topshiriqlarning o`ta jo`n bo`lishi ham yaxshi ijodiy rivojlanishga to`sinqinlik qiladi. Ular birinchidan bolalarning mustaqil fikrlashlarini susaytirsa, ikkinchi tomondan ulardagi rivojlanishni to`xtatadi.

O`quvchilar harakat va qobiliyat jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o`qituvchidan o`quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib borishni talab qiladi, ya`ni o`qituvchi bolalarni bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda ularga turlicha murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy ishlarinito`g`rilashga ba`zi nazariy va amaliy vazifalarni tushintirish maqsadida doskada rasm ishlab ko`rsatishiga to`g`ri keladi.

Pedagogikada bu printsip qadimdan tajribadan o`tganligi sababli o`qituvchini o`z faoliyatida shu yo`ldan borishi ko`zlangan maqsadga erishuviga asos bo`ladi. Kezi kelganda shuni ta`kidlab o`tish lozimki, hammaoson narsalar ham bolalarga tushunarli bo`lavermaydi va aksincha murakkab materiallar

tushunarli bo'lishi ham mumkin. Bunda o'quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o'ynaydi. O'qitishning o'quvchilar yoshiga maosligi printsipi qadimdan qo'llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinda, konkretlikdan abstraktlikka printsiplariga asoslaniladi. Masalan, tasviriy san`atni o'qitishda yaqindan uzoqqa borish printsipida ish tutish maqsadida o'qituvchi avval bolalarga yaqin bo'lgan o'zbek xalqining tabiatini, turmushi, mehnatini tasvirlovchi O'zbekiston rassomlari asarlarini, so'ngra O'rta Osiyo, SHarq, Evropa mamlakatlari san`atini o'rgatadi.

YUqoridagi fikrlardan tasviriy san`atdan dars va darsdan tashqari ishlarjarayonida didaktik printsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini sezib olish qiyin emas. Didaktik printsiplar o'quvchilarning badiiy ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishiga shart-sharoitlarni yaratadi.

## II BOB. KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARIGA NATYURMORTNI TASVIRLASHGA O'RGATISH METODIKASI

### 2.1. O'quvchilarni natyurmort janrida ishlashga o'rgatishning metodik asoslari

Natyurmort - portret, manzara, tarixiy va maishiy janrlar kabi tasvirii san`atning o'ziga xos mustaqil janridir. «Natyurmort» frantsuzcha so'z bo'lib, «jonsiz tabiat» degan ma`noni anglatadi.<sup>25</sup>

Natyurmortlarda, ko'pincha turmushda zarur bo'lgan turli buyumlar, mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parrandalar tasvirlanadi, ya`ni natyurmort san`atda insonning maishiy hayotini aks ettiradi.

Natyurmort namunalari azaldan ma`lum bo'lib, ularni qadimgi Misr davlatida devorlarga ishlangan suratlarda, qadimgi YUnionistonda ishlangan mozaikalarda uchratish mumkin. Xitoy san`atida esa VII asrdayoq natyurmort san`ati mustaqil janr shaklida ko'ringan. Xitoyda, ayniqsa X-XI asrlarda natyurmort san`ati keng rivoj toptan edi.

Evropada natyurmort XVI asrning oxirlariga kelib mustaqil janr sifatida shakllandi. XVII asrga kelib natyurmort janri Gollandiya va Flandriya, XVIII asrda esa Frantsiya tasvirii san`atida keng tarqaldi. Bunday suratlarni «sokin hayot», «buyumlar hayoti», «turmush rang tasviri» kabi nom-lar bilan atashdi. Bu terminlar ularning mazmuniga mo's kelsa ham, dastlab «natyurmort» termini mustahkam o'mashib qolgan bo'lib, bunday asarlar hamon shu nom bilan atalib kelinadi. Natyurmort asarlarini diqqat va sinchkovlik bilan o'rgangan kishi ularda ma`lum davr ijtimoiy hayotining aksini ko'radi va shu davrda yashagan odamlarning turmush tarzi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Golland rassomlaridan Piter Klassning «YAxna go'shtlik natyurmort»ini, YAn Van Geysumning «Gullar», flamand rassomi F. Snayders mo'yqalamiga mansub «Meva dukoni», «Baliq do'koni», rangtasvir san`atinning nodir ustasi frantsiyalik rassom Jan Batist Simeon SHardenning «San`at atributlari» asarlarini

---

<sup>25</sup> Азимова Б. Натюроморт тузиш ва тасвирлаш методикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

kuzatar ekanmiz, ularda oddiy narsalarning yuksak badiiy mahorat bilan ishlanganligini ko'ramiz.

O'zbekiston tasviriy san`atida natyurmort janri keyingi yillarida rivojlandi. Respublikamizda rassomlardan N. Kashina, 3. Kovalevskaya, YU. Elizarov, R. Ahmedov, N.Ten, G` Abdurahmonov, A.Nuriddinov, A.Mirzaev kabi ko'plab natyurmort janrining ustalarini keltirish mumkin.

Natyurmort mustaqil janr bo'lishi bilan birga, tematik suratlardagi asarlarning mazmunini olib berishda ko'maklashuvchi, uni to'ldiruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Ko'pincha oddiy buyumlar tilga kirib, surat mazmunini kitob sahifasi kabi osongina o'qilishiga, voqeа qachon, qaerda sodir bo'layotganini bilib olishga yordam beradi. Tandali rus rassomi V. A. Serov ishlagan «Qiz va shaftolilar» suratida qo'lida shaftoli tutgan yoqimtoy qizcha tasvirlangan. U hashamatli xonadagi stol yonida xotirjam o'tiribdi, stol ustidagi oppoq dasturxonda bir nechta shaftoli mevasi va barglar yotibdi. Xushchaqchaq qizning sho'xchan nighi tomoshabinga qaratilgan. Lablaridagi engil tabassumdan ko'rinish turibdiki, u hayotdan mammun, baxtiyor. Qizchaning pushti rang harir ko'ylagida, xona devorlarida, derazadan ko'rinish turgan daraxtlarning barglarida, stol ustidagi mevalarda quyosh nurlari tovlanib, jilvalanib turibdi.<sup>26</sup> Mo'yqalam sohibi asar mazmunini ochishda kichik detallardan ustalik bilan foydalangan. Shaftolilarning iliq sarg`ishqizil ranglarini atrofdagi binafsha, pushti, yashiltob kabi turli-tuman ranglar bilan uyg`unlashtirib tasvirlashi tufayli suratning o'ta ta`sirchanligiga erishgan. Qatta mahorat bilan ishlangan bu polotnoga nazar tashlar ekanmiz, insonni o'rab turgan narsalarning latofatini va ko'rkinn chuqur his etamiz.

Alovida mazmunli natyurmort asari yaratish haqidagi fikr rassom xayolida uzoq vaqt davom etgan kuzatishlar yoki biror narsadan qattiq ta`sirlanish oqibatida to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin. Lekin har ikkala holda ham ijodkorning ko'z o'ngida bo'lajak natyurmort yaxlitligicha gavdalanadi va unga moe narsalar tanlab, e'tibor bilan joylashtirish haqida fikr yuritadi, xomaki eskizlar chizadi va shu eskizlar asosida kompozitsiya tuzadi.

---

<sup>26</sup> F.Абдурахмонов. Композиция. –Тошкент, Низомий номидаги ТДПУ, 2008.

Har qanday san`at asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. «Kompozitsiya» lotincha-tuzish, qurish, ijod qilish demakdir. U asar tuzilishida qismlarning asar g`oyasiga muvofiq joylashtirilishini va o`zaro munosabatini anglatadi.

Tasviriy san`atda kompozitsyaning simmetriya va asimmetriya, muvozanat va ritm, turg`unlik (statika) va harakat (dinamika), ikkinchi darajali narsalarning birinchi darajali narsalarga (asosiya) bo`ysunishi, ko`rish markazi va ko`pincha unga mos keladigan kompozitsion markazni bo`rttirib ko`rsatish kabi qoidalari mavjud.

Kompozitsyaning asosiy talablari yaxlitlik, simmetriya va ritm-tabiat yaratgan shakllarda-gul va barglar tuzilishida, ularning daraxt novdasida joylanishida yaqqol ko`rinib turadi. Inson qo`li bilan yaratilgan narsa-larda tabiatga taqlid qilish, u yaratgan shakllar chiroyidan nusxa olishga intilish namoyon bo'ladi.<sup>27</sup>

Natyurmort tuzish — ijodiy jarayon. Unda rassomning didi va layoqati, kompozitsion madaniyati namoyon bo'ladi. Tasodifan terilib qolgan narsalarni natyurmort deb bo`lmaydi. Natyurmort kompozitsiyasining ma`noli va ta`sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi, bir-biriga munosib va moe narsalar tabiiy bog`lanishda qo`yilishi kerak. Qo`yilgan natyurmort kishida qiziqish va raem chizishga havas hissini uyg`otadigan bo`lishi va albatta, kompozitsiya talablariga javob beradigan bo`lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta`sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, hajmi, materiali, sirti (fakturasi), rangi va och-to`qligi (ton) bilan bir-biridan farq qilishi kerak. Ammo bu farq juda keskin darajada bo`lishi ham noo`rin. Masalan, katta chelak yoniga qo`yilgan gugurt qutichasini ko`z ilg`amaydi, chunki ular o`rtasida uzviy bog`lanish sezilmaydi.

Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida birbiriga va fon (orqa sath)ga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortning qiziqarli chiqishiga ta`sir etadi.

SHarden, Surbaran, Kalf, Snayders, Q. Korovin, I. Mashkov, P. Konchalovskiy va boshqa natyurmortnavis rassomlar asarlarida hayotiy haqiqatni,

---

<sup>27</sup> F.Абдураҳмонов. Композиция. –Тошкент, Низомий номидаги ТДПУ, 2008.

matoda jonlangan tabiatni ko'ramiz. Mashhur rassom-pedagog B. Ioganson mohir mo'yqalam sohibi SHardenning «Piyozli natyurmort» ini ko'rib, mazkur natyurmortning yaratilishini tasavvur qilib, quyidagi fikrni bayon etadi. Aytaylik, SHarden oshxonaga kirganida ko'zi stol ustidagi ko'k piyoz boshlariga tushganu, piyozning cho'ziq shakli va nafis rangi uning diqqatini jalg qilib, qiziqtirib qolgan. Xuddi shu narsa surat kompozitsiyasining cho'ziq bo'lishiga sabab bo'lган bo'lishi mumkin. SHakli jihatidan unga zid narsalar izlab, SHarden sharsimon olmalarни, ovalsimon tuxumlarni va ro'zg'orda zarur bo'lган har xil buyumlarni mis qozon, sopol va shisha idishlarni tanlagen. Rassom ataylab shakli, o'lchami, materiali bir-biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatning o'ziga, undagi narsalarning rang-barang va turli-tumanligiga qiyoslagan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jihatdan juda sodda ko'rindi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechtasini olgan xolos. Mazmunan bir-biriga monand narsalarni tanlab olgandan keyin ulardan shunday bir yaxlit guruh tashkil qilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta, uning tasvirini karatish ishtiyoqini hosil qilsin.

SHarden natyurmort tuzish uchun tanlagen narsalar mis qozon, sopol cho'mich, yashil rang shisha idish, ko'k piyoz boshlari, ikkita olma va ikkita tuxum. Bular hammasi ham oshxona ashylari bo'lib, shakllari, tuzilishlari, sirtlari va ranglari har xil. Aytaylik, rassom natyurmortni faqat qozoncha va katta shisha bankadan tuzsa bo'lar-midi? yo'q, albatta. YAna beixtiyor, narsalar tasodifan shunday holatda joylashganmi yoki SHarden ularni ongli ravishda shu tartibda qo'yanmikan, degan savol tug'iladi. Bu savolga javob topish uchun qo'yilgan natyurmortning qanchalik tabiiyligini tushunishga harakat kilib ko'rish kerak.

Endi yog`log`i ichiga ikkita tuxum solib ko'raylikchi. Natyurmortimiz ancha boyidi, chunki tuxumlarning oq rangi katta shishaning to'q yashil rangidan keskin farqlandi. Ranglar birikmasi boyroq bo'ldi, kul rang fonda to'q yashil, qizg`ish va oq ranglar jonlandi. Lekin rassomda baribir qandaydir qanoatlanmaslik hissi saqla-nib qoldi, chunki shishaning o'ng va chap tomonlaridagi bir xil chiziqlar, uning shaklini zerikarli ko'rsatib turibdi. Nihoyat, rassom sharsimon rangli olmani tanlab yaxshi natijaga erishdi. Endi natyurmort qiziqarli chiqdi, chunki silliq

rangdor olma natyurmortdagি ranglar qatorini yanada to’ldirdi. Ammo mo’yqalam sohibi yana mamnun bo’lmadi, chunki bu erda hamma topilgan shakllarnи yaxlitlashtirib ko’r-satadigan bog`lovchi shakl etishmasdi. Nihoyat, u qo’yilgan buyumlardan keskin farq qiluvchi narsa piyoz boshlarini qo’yadi. Endi natyurmort yana boshqacha ko’rinishda namoyon bo’ldi.

SHunday qilib, rassom kompozitsion butunlikka erishdi, natyurmortni ishtiyoq bilan tasvirlasa ham bo’lardi. Lekin uning xayoliga yangi fikr kelib, yana boshqacharoq shakl qo’shish istagi paydo bo’ladi. U natyurmort tarkibiga mis qozonni kiritadi. Qozon bandining holati ham tasodifiy emas, u piyoz boshla-ri cho’ziq shaklining davomi bo’lib ko’rinib turibdi. Qozon chekka chi-ziqlarining bir-biriga yondoshligini buzish uchun esa mohir mo’yqalam sohibi natyurmortga ikkinchi olmani kiritadi, va nihoyat, natyurmortning tugalligiga erishadi. Endi ko’z o’ngimizda rassom ijodiyotining qimmatbaho durdonalaridan biri to’la to’kis namoyon bo’ldi. Qo’yilgan narsalarning materiali mis, shisha, sopol va hokazolar shakllari cho’ziqroq, dumaloq, sharsimon (olmalar), tsilindrsimon (qozoncha), shar va tsilindr birikmasi (katta shisha), yarim shar (yog`log`i), cho’ziq tsilindr (piyoz); o’lchamlari katta qozon, o’rtacha shisha, kichikroq yog`log`i, mayda tuxum va olmalar; ranglari misning qizg`ish rangi, to’q yashil shisha, kesak rang sopol yog`log`i, yashiltob piyozlar, sarg`ish lola rang olmalar, oppoq tuxumlar hammasi xilma-xil va rang-barangdir. Bular hammasi ulkan mo’yqalam sohibining yuksak iqtidori, tabiatning beqiyos boyligini ko’ra olishi va to’g`ry qabul qila olishi natijasidir.<sup>28</sup>

«Piyozli natyurmort»ni diqqat bilan kuzatgan kishi uning uchburchak ichiga joylashtirilganini ko’radi. To’g`ri burchakli uchburchakning uzun tomoni (piyoz boshlari) surat tekisligini diagonal bo’ylab kesib o’tgan. Uchburchak ichida narsalar shunday joylashganki, qozonning qorong`i tomonidan surat tekisligigacha bo’lgan masofa, taxminan, surat tekisligining chap chekkasidan to piyozning ildizlarigacha bo’lgan masofa bilan barobar.

---

<sup>28</sup> Азимова Б. Натюроморт тузиш ва тасвирлаш методикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

SHuningdek, yuqoridaan mis qozongacha bo'lgan masofa, surat tekisligining pastki chegarasidan olmalar asosigacha bo'lgan masofa bilan teng. SHular hammasi birgalikda san`at asarining kompozitsiyasini tashkil qilib, uni «o'qishga» imkoniyat yaratgan.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uning tabiiyligidadir. Demak, natyurmort tuzish, uni o'rnatish vaqtida yaxlitlikka, tugallikka erishishga harakat qilish lozim. Buning uchun esa klassik namunalarni ko'plab tahlil qilib, u yoki bu asar nima uchun odamga shunchalik ta`sir etadi, zavqini keltiradi, degan savolga javob izlash foydalidir.

Odatda, tasvirlashga o'rganish mashg`ulotlari natyurmort ishslashdan boshlanadi. CHunki natyurmort qalam va bo'yoqlar bilan rasm ishslashning asosiy qonunlarini o'rganishda zarur ko'nikmalar hosil qilish uchun juda qulaydir. Har xil shakllarning tuzilishini tushunish, ularning hajmdorligini yorug`-soya vositasida ifodalashni bilish uchun geometrik jismlar va shakli ularga o'xshash bir qator ro'zg`or buyumlarning rasmi chiziladi, Natyurmortning manzara yoki intererga nnsbatan afzalligi yana shundaki uni qo'yib olgandan keyin, bir necha kun joyidan qo'zg`atmasdan har xil qarash nuqtalaridan qayta- qayta tasvirlash mumkin bo'ladi. Bu esa ayniqsa o'qish, o'rganish davrida qulaydir. Natyurmortning atrofimizdag'i tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod qilish yoki o'rganish maqsadida o'zi ataylab tuzadi, tafakkuri kuchi bilan barpo etadi.

O'quv natyurmortining kompozitsiyasi, bir tomondan, estetik talblariga, ikkinchi tomondan, ta`limning didaktik talablariga javob berishi kerak.

Natyurmortni puxta, uzoq vaqt o'ylab mulohaza qilib qo'yiladi. Unga juda ko'p narsa kiritilmaydi, lekin ularning shakl va ranglari har xil bo'lismiga e'tibor berish kerak. Bitta da shakllari har xil narsalarning, masalan, chinni yoki sopol idish, metall yoki yog`och buyum, har xil rangli sidirg`a matolarning kiritilishi asar mazmunini boyitadi va qiziqarli qiladi. Silliq, yadtiroq sirtli idishni sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloq shakl bilan yonma-yon qo'yilsa, ularni taqqoslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tug`iladi.

Natyurmortda asosiy talablardan biri narsa o'lcham, rang va ton jihatidan ajralib turishi hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qo'yilishidir. Bu

surat mazmunini ochishda so'z boshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaning markazini bo'rttirib ko'rsatib turadi. Lekin u, albatta, surat tekisligining o'rtasida turishi shart emas, unda qo'yilma zerikarli chiqishi mumkin. Ko'pincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal siljитib qo'yadilarda, muvozanatni saqlash uchun qarama qarshi tomonda rangi va och to'qligi unga zid bo'lган predmet oladilar. Atoqli natyurmortnavislar Sezan, SHarden, Xrutskiyalar bu usuldan unumli foydalanganlar.<sup>29</sup>

Bir xil narsalardan bir necha ko'rinishda natyurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal ham hajm-larning katta-kichikligi va bo'lak-larning och-to'qligi o'rtasidagi mu-vozanat saqlanib qolishi kerak. Bitta natyurmortda bir nechta teng ahamiyatli kompozitsiey markaz bo'l-maydi, unda natyurmortning butun-ligiga putur etadi. Har vaqt natyurmortdagi narsalar o'rtasida uzviy bog`lanish bo'lsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalanadigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa, u ma`nodor tuyuladi. Natyurmortni tashkil etish vaqtida predmetlarni bir necha marta qo'yib ko'rish, ular birgalikda qanday ko'rinishini sinchiklab kuzatish, agar ma`qul bo'lmasa, yana qayta-qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik paydo bo'lgunga qadar davom ettirish kerak.

Uquv natyurmortining muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylanishidir. Unga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda biri ikkinchisi va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi. Ammo narsalarning tubi qisman bo'lsa ham, ko'riniq turgani ma`qul, shunda ularning o'zaro joylashuvini tasvirlash oson bo'ladi.

Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog`lash maqsadida unga cho'ziqroq shakldagi narsa kiritiladi. Surat tekisligining asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan pichoq, qoshiq, qog`oz o'rami, mo'yqalam va hokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan «kalit» bo'lib, tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmort murakkab va ko'p buyumli bo'lган taqdirda, eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. U

---

<sup>29</sup> Азимова Б. Натюроморт тузиш ва тасвирлаш методикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

shakli, rangi va tusi bilan ajralib ko'rini, kompozitsiya markazini tashkil qilishi kerak. Qolgan narsalar birinchi va orqa planlarda joylashtiriladi.

Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo'limgan, ammo yorqin narsa qo'yiladi. SHuningdek, uni ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z nuridan pastroqqa qo'yilgan natyurmort yotiq predmet tekisligida to'la-to'kis ko'rini turadi, narsalarning asoslari, ularning o'zaro joylanishi yaqdol ko'rindi va tasvirlash uchun qulay bo'ladi. Masalan, ko'za va olma yoki choy idish va kosacha olib, shunday joylashtiramizki, ular ko'rish maydonida, muvozanatlari holatda ko'rinsin. Alovida buyumlarni o'z o'rniga qo'yishdan avval, albatta, natyurmort o'rnatiladigan joyni aniqlash kerak bo'ladi. Aytaylik, bu devor yaqinida stol bo'lsin. Birinchi navbatda, stol sathi bilan (gorizontal tekislik) uning orqasidagi devor (vertikal tekislik) orasidagi nisbat aniqlanadi. SHundan so'ng natyurmortni o'rnatsa bo'ladi.

Ishni eng yirik narsani qo'yishdan boshlaymiz. Natyurmortning atrofdagi qismini xayolan chegaralab, choydishni markazdan o'ng tomonga, bir oz siljiti qo'yib ko'ramiz. Devor yaqinida joylashgan choy idish e'tiborni o'ziga jalg qilishi bilan birga stol va devorning kerakli qismini ko'z bilan qamrab olishga yordam bermoqda. Endi likobcha ustidagi kosachaping o'rmini topish ham ancha oson bo'ladi, uni choyd ishga yaqin joyga markazdan chaproqqa surib shunday masofada joylashtirish kerakki, ular o'rtasidagi bog`lanish sezilib tursin. Endi, garchi muvozanat sodir bo'lgan bo'lsa-da, bu buyumlar o'rtasidagi aloqadorlik yaqqol ko'rinxayapti, vaholanki, tomoshabinning nigohi bitta narsadan ikkinchisiga sakrab o'tishi kerak. Bu holni yo'qotish maqsadida choy qoshiqcha olib, uni stol ustiga har ikkala buyum oralig`idagi masofaga shunday holatda joylashtirish kerakki, u buyumlarni bir-biri bilan bog`lab, postanovkaga tugallik baxsh etsin.

Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'laroq ochib berish uchun, yorug`lik nurlari olddan va yondan tushadigan bo'lishi kerak. SHunda natyurmortdagagi shakllarning yorug`lik manbaiga qaragan tomonidan yorug`lik, qarshi tomonda soya, siyrak soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko'rini, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi.

Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini ta`minlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan bekitish mumkin, bunda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi, birinchi plandagilar ravshanroq ko'rindi. Tabiiy yorug`likning kuchi etarli bo'lmasa, natyurmortning yon tomoniga sun`iy yoritkich qo'yiladi. SHunda oldindagi narsalarda yorug`-soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirtlari yaqqol ko'rindi, ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalarda qarama-qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to'q joylari bilan umumiyl xolda ko'rindi. Lekin natyurmort rangda tasvirlanadigan bo'lsa, ni deraza yaqiniga, kunduzgi yorug`lik nurlari bilan oldindan va bir oz yonboshdan yoritiladigan qilib qo'yan ma`qul, chunki sun`iy yorug`likda ranglar (ayniqsa sariq va ko'k) o'zgarib ketadi.<sup>30</sup>

Maqsad natyurmortdagи narsalarning asl (lokal) ranglarini aniqlashdan iborat bo'lganda, u deraza ro'parasidagi devor yoniga qo'yiladi. Bunda natyurmortga nurlar old tomondan tushadi, soya va reflekslar unchalik ko'p bo'lmaydi va predmetlarning o'z rangi yaqqol, ochiq-oydin ko'rindi. Narsalarning yaqqol ko'rinishi fon (orqa sath) uchun mato tanlashga ham bog`liq.

Avvaliga fon uchun tanlanadigan matolar yaxlit, sidirg`a va nursizroq bo'lgani ma`qul, chunki olachipor yorqin, rangli mato ko'zga aniq tashlanib, natyurmortning o'zini ko'rishga xalaqit beradi. SHuni ham hisobga olish kerakki, ochroq fonda qoramtilar narsalar, to'q fonda esa, aksincha, oq narsalar ravshan ko'rindi. Ko'pincha natyurmort tarkibiga ham oq, ham qoramtilar narsalar kirganda, unga o'rtacha kul rang tusli fon tanlanadi. Bunaqa fanni yaxlitlashtirib ko'rsatib, tasvirlashda qulaylik yaratadi.

Keyinchalik natyurmortga kompozitsiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida burmali matolar (drapirovska) kiritiladi. Orqa fonga va predmet stoliga to'shaladigan matoning (chit, xolst, shoyi, bahmal, movut) xarakteriga mos holda mayda va yirik burmalar solib o'yish mumkin. Bunda parda, dasturxon, ro'mol,

---

<sup>30</sup> Азимова Б. Натюроморт тузиш ва тасвирлаш методикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

sochiqlar o'zining muayyan vazifasini bajarish holida joylashgani ma`qul. Mato devordagi bitta nuqtaga biriktirib qo'yilsa, u pastga erkin osilib tushadi va tabiiy shakldagi burma hosil qiladi. Agar mato qandaydir buyum ustiga tashlansa, burmalar shu buyumning shakli bilan bog`liq ko'rinishda bo'ladi. Lekin juda ko'p sonli va mayda burmalarni tasvirlash qiyin, shuning uchun dastlabki natyurmortlarda sidirg`a, g`ijimlanmaydigan, jilvasiz va gulsiz matolardan foydalanish kerak. YUqorida aytganlarimizdan ma`lum bo`ldiki, natyurmort qo'yilmasini qo'yish jiddiy va mas`uliyatli ish. YAxshi qo'yilgan natyurmortda ortiqcha, tasodifiy narsalar bo'lmaydi, uni old yoki yon tomondagi qarash nuqtalaridan kuzatilganda, mazmunli, yagona gruppera bo'lib, ko'z-ga yakqol tashlanib turadi. SHunday qilib, natyurmort tuzish uchun:

- a) mavzu tanlash;
- b) natyurmort mavzusiga mos keladigan narsalar va matolar topish;
- v) narsalarning shakli, tuzilishi, tusi va ranglarini hisobga olib joylashtirish;
- g) shakllarning hajmdorligini yaqqol ko'rindigan tarzda yoritish zarur.

SHular hammasi birgalikda natyurmort kompozitsiyasi (postanovkasi) deb yuritiladi.

## **2.2. O'quv natyurmortini tasvirlashda qalamtasvir fanining amaliy jihatlari.**

Ma`lumki, natyurmortni tasvirlash tasviriy san`at texnologiyasi bo'yicha turli vositalarda amalga oshirilishi mumkin. Ulardan eng keng tarqalgani qalamtasvirdir. Natyurmort postanovkasini mazmun va kolorit jihatidan maqsadga muvofiq tashkil etib bo'lingandan so'ng, uni metodik izchillikda tasvirlashga o'tiladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ko'p xollarda qo'yilgan natyurmortning asosiy g`oyasini surat tekisligida tasvirlab ko'rsatib berish, ya`ni natura bilan tasvir o'rtasida to'la o'xshashlikka erishish uchun, tasviriy san`atping qonunlari bo'lgan kompozitsiya, perspektiva, yorug`-soya va rangshunoslik asoslarini puxta bilishmaydi va ularni amalda qo'llay olishmaydi. Bu qonunlar shakllarning tasvirini asliga qarab tasvirlash vaqtida bilim va ko'nikmalar asosida takomillashgan bo'lishi lozim. Natyurmort ishlashda bu vazifalar yanada murakkablashadi. Endi vazifa bitta narsani emas, bir necha narsani o'zaro

bog`lanishda, qismlari bir-biriga mos bo`lgan yaxlit narsa qilib tasvirlab ko`rsatishdan iborat bo`ladi. SHuning uchun ishning rejasini tuzib olib, ketmaket bosqichlar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. O`uv vazifasini mukammal bajarish uchun o`quvchi tasvirlashni quyidagi mutodik tamoyillarga rioya qilgan xolda olib borishi kerak:

1. Avvalo, qo`yilgan natyurmortni turli nuqtalardan diqqat bilan kuzatib, tahlil qilish.
2. Kompozitsiyaning ijodiy masalalari, ya`ni natyurmort qismlari o`rtasidagi uzviy bog`lanish shakllarning bir butunlikda, yaxlit bulishiga erishish.
3. Natyurmortga turli nuqtalardan qaraganda, umumiyo ko`rinishi hamda, qismlarning o`lchov va nisbatlarining perspektiva qoidalari asosida o`zgarib ko`rinishi.
4. Turli nuqtalardan qaralganda, aynan shu natyurmort uchun eng xarakterli bo`lgan asosiy shaklni ohib berishda yordam beradigan kompozitsiyani tanlash.

Demak, natyurmort tasvirining ta`sirchan bo`lishi va undan ko`zlangan maqsadga to`la erishish uchun unga nisbatan eng qulay va qiziqarli qarash nuqtasini topish kerak bo`ladi. Buning uchun har xil joyda o`tirib yoki turib, unga yaqinlashib va undan uzoqlashib qarab ko`rish kerak bo`ladi. Bunda har gal kuzatuvchi ko`zlarining balandligi o`zgarib u bilan birga ufq chizig`i va kurish markazi o`zgarib turadi. Qo`yilgan natyurmortga nisbatan eng yaxshi qarash nuqtasini topib, ufq chizig`ini unga muvofiq belgilab olish muhim ish bo`lib, tasvirning umumiyo kompozitsiyasi ko`p jihatdan unga bog`liq. Natyurmort tasvirini surat tekisligida chiroyli joylashtirish (komponovka) bir qator masalalarni hal qilishni talab etadi. Bulardan biri kerakli qog`oz formatini tanlash. SHuning uchun ishni boshlashdan avval bir nechta kichik hajmli xomaki rasm bajarib ko`riladi.

CHizilgan eskizlardan eng muvaffaqiyatli chiqqanini tanlab, shu asosda katta tasvir boshlanadi. Endi asosiy tasvirning surat tekisligiga nisbatan qanday kattalikda olinishi alohida e`tibor berish zarur. CHunki ayrim narsalar tasviri juda katta bo`lib

ketib, hamma predmetlar to’la sig`may qolishi mumkin. YOki narsalar tasviri formatga nisbatan juda kichik bo’lib qolib, atrofida bo’sh joy ko’p qolsa, natyurmortning ma`nodorligi yo’qoladi.

Tasvirni qog`oz yuzasida chiroysi joylashtirish masalasi hal bo’lgach, har qanday tasviriy san`at asariling poydevori bo’lgan chiziqli rasmni boshlasa bo’ladi. Qo’ylgan natyurmortning umumiyligi nisbatlarini aniqlangach, qog`oz yuzasida uning umumiyligi o’lchovlari kengligi va balandligi engil chiziqlar bilan belgilab chiqiladi. Har bir narsanining umumiyligi shakli, qismlarining o’lchamlari va shakllarning asoslari orasidagi masofalar ham chiziladi. Bu ishlar qalamni qog`oz yuzida ehtiyyotkorlik bilan tez-tez yurgizish bilan taqqoslab turib bajariladi. Har qaysi predmetning o’ziga xos shakli, katta-kichikligi va tutgan o’rni aniq bo’lgandan keyin, ularning tuzilishini tahlil qilib, sinchiklab kuzatib, u shakllardagi perspektiv qisqarishlar amalga oshiriladi. Predmetlarning shaklini tahlil qilish chiziqli rasm ishlashda g`oyat mas`uliyatli bosqichdir, chunki u rasm ishlovchidan mantiqiy fikr yuritishni va obrazli tasavvur qilishni talab etadi.

Mashhur rus pedagogi va rassomii P. P. CHistyakov: «Rasm chizmoq-fikr yuritmoq demakdir»,— deb bejiz aytmagan. Har bir o’tkazilgan chiziq qandaydir aniq fikrning ifodasi bo’lmog’i lozim. SHunda narsalar shakli, qismlari orasidagi mutanosiblikni, konstruktiv tuzilishni tushunish osonlashadi. Ayrim narsanining konstruktsiyasi deganda, uning qismlari orasidagi ichki bog`lanishlarni, tashqi ko’rinishini ifodalovchi sinchini tushunish kerak.

Predmetlarni surat tekisligida joylashtirish vaqtida, albatta narsalarning asoslarini to’la chizib chiqish kerak. Bu tadbir har qaysi predmetning o’rnini va alohida narsalar o’rtasida qolgan masofani to’g`ri ifodalashga yordam beradi. SHunday qilinganda ba`zi narsalarning «muallaq» bo’lib qolishi yoki bir narsanining ikkinchisiga «o’yib» kirgandek tuyulib qolishiga yo’l qo’yilmaydi. Umuman, hajmdor narsalarning rasmini chizganda, ularni shishadan yasalgan, tiniq deb faraz qilib, uning ko’zga yaqqol ko’rinmaydigan jihatlarini ham bilinar-bilinmas chizib chiqish maqsadga muvofiqliqdir.

CHiziqlar vositasida hajmlarning chegaralarini belgilash bilan birga, ularning shakllarini yanada aniqroq bo’lishiga erishishning yana bir yo’li yirik

shtrixlar bilan shaxsiy va tushuvchi soyalarini qoralab olishdir. Bu tadbir narsalarning mutanosibligini yanada ta`kidlash va shakllarni aniqroq tasvirlashga olib keladi.

Natyurmortdagi narsalarning fazoviy holati va hajmini realistik tarzda tasvirlash uchun ularning qay holatda turganini aniq chizish bilan bir qatorda perspektiva va yorug`-soya qonunlarini puxta bilish va ularni amalda qo'llash yuzasidan ma`lum ishlar olib borish kerak bo'ladi. Predmetlar shaxsiy va tushuvchi soyalarining chegaralari topilgandan keyin, har bir narsaning yorug`-soya, yarim soyalarini birma-bir ishlab chiqishga o'tiladi. Har bir narsaning hajmdorligi va materialini haqqoniy qilib tasvirlash uchun natura bilan tasvirdagi yorug`, soya yarimsoya va reflekslearning nisbiy mutanosibligiga erishishga harakat qilish kerak. Buning uchun esa natyurmortdagi eng to'q soya va eng yorug` erlarni aniqlab olib, shtrixlashni ana shu eng to'q soyadan boshlash lozim. Ayni shu paytda natyurmort rangiga xos umumiyligi och-to'qlikni to'g`ri aniqlash g`oyatda muhim. Buning uchun yoniga bironta qora narsa (qora baxmal parchasi) qo'yib qaralsa, eng quyuq soya ham unga nisbatan oqishroq bo'lib ko'rindi. Agar shu narsa natyurmort tarkibida bo'lganda, shtrixlashni o'shandan boshlash va qalamning bor «imkoniyati»dan foydalanish lozim bo'lardi. Natyurmortidagi hech bir narsaning to'q tusliliyi baxmalga teng kelolmasligini hisobga olib, soyalarini bir oz kuchsizroq tonlarda berishimiz kerak. Xuddi shu yo'l bilan postanovkadagi eng yorug` arning och-to'qlik darajasini aniqlasa bo'ladi. Endi natyurmort yoniga oppoq narsa - oq qog`oz parchasi yoki bir bo'lak bo'r qo'yilsa bas. Natyurmortdagi eng yorug` shalni ham taqqoslash imkoni tug'iladi. Alovida predmetlarning yorug` va soya erlarini tasvirlash vaqtida, albatta, ularning fonga nisbatan qanday ko'rinishini aniqlash zarur. Odatda, predmetning soya tomonida fon ochroq, yorug` tomonida esa, aksincha, to'qroq ko'rindi. Bu yorug`lik kontrasti bo'lib tasvirlashda uni, albatta hisobga olish kerak. Predmetning yorug` tomonidagi fanni to'qroq, soya tomonagisini esa ochroq qilib tasvirlash, natyurmortdagi yorug` va soyalar qaramaqarshiligini yaqqol ko'rsatishga yordam beradi. Narsalardagi soya, yarim-soya, reflekslearning har birini och-to'qlik daraja-siga monand qator kalta chiziqlar bilan shtrishlash, chiziqlarning aynan shu narsaning shakliga monand yo'nalishini

topishga harakat qilish kerak. Masalan, tsilindrsimon idishning hajmdorligini ifodalash vaqtida soya, yarimsoyalarni palapartish chizib tashlansa, uning silliq, yumaloq sirtini aniq ko'rsatib bo'lmaydi. Bunday hollarda yorug`dan soyaga o'tish asta-sekinlik bilan boradi, shtrixlar ularning shakliga monand xolda egilib, ravon yo'naladi.

Tushuvchi soyani tasvirlashda esa, chiziqlar ikki yo'nalishda, ustma-ust tortiladi, ulardan bittasi, albatta, yorug`lik nurlarining yo'nalishiga yondosh qilib qo'yiladi. Qirrali buyumlarning tomonlari bir-biri bilan kesishadigan yondosh chiziqlar yordamida shtrixlanadi. Chiziqlarning yo'nalishi har xil tik, yotiq, qiya bo'lib, jism qirralarining yo'nalishiga o'xshash qilib qo'yiladi. Bunda qalamni qog`ozga qattiq bosmasdan, bir maromda shtrixlashga, kerak bo'lgan erdagina qalamni bosibroq ishlatishga o'rganib borish kerak.

Natyurmortni tasvirlash vaqtida predmetlarning o'lchamlarini va yoritilish kuchini ifodalash bilan chekidanib qolmay, sirtlarning chekkalaridagi yorug`-soya qarama qarshilagini ham hisobga olish lozim. Qirrali sirtlarda yorug`lik va soyanning tarqalishi o'ziga xos bo'lib, har bir tekislik o'zining toniga (och-to'qligiga) ega bo'ladi. Ikkita tekislik to'qnashgan erda (chegarada) esa och tus yana bir oz oqarib, to'q ton esa bir oz to'qlashib ko'rindi. Bu hodisa qirra qarama qarshiligi deb yuritiladi.

Narsalarning chekka chiziqlari (tarxi)larining aniqligi ham har erda har xil ko'rindi. YOrug` tomonda predmet sirtining och-to'qlik darjasini yonidagi fonga o'xshash bo'lib, bular bir-biri bilan mayin bog`lanishda ko'rindi. Narsaning soya tomonida esa tarh chizig`i siyqalanib, fon bilan deyarli qo'shilib ketgandek bo'ladi. YUmaloq sirtning har bir mayda bo'lakchasi yorug`dan soyaga o'tishda asta-sekin to'qlashib boradi. Lekin eng quyuq soya predmetning chekkasida bo'lmay, markaz tomonga bir oz surilgan bo'ladi, chunki eng chekkalarida uning yonidagi narsadan yoki te-kislikdan aks etgan nurlar bilan yoritilgan joy refleks bo'ladi. Lekin har qanday refleks ham narsaning yoritilgan qismidan to'qroq ko'rindi.

Narsaning yorug` qismi o'rtasida asa tiniq oq dog` ko'rindi. Bu blikdir. Sirtlari silliq shisha, metall buyumlarda blik yaltirab turadi. Hamma narsaning

hajmdor shakliga diqqat bilan maydalab ishlov berilgach, natyurmort ishlashnnng oxirgi bosqichiga o'tiladi.

Tasvirdan bir oz uzoqlashib, postanovkaga solishtirib qarash natijasida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni sezish mumkin bo'ladi. SHunday qilib, natyurmortning kalamda tasvirlash jarayoni quyi-dagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. SHakllarni sinchiklab tahlil qilish.

2. Surat tekisligida tasvirni joylashtirish.

3. Har bir predmetning o'lchami-ni belgilab, perspektiva qoidala-ri asosida shaklini chizib olish.

4. Narsalarning hajmdorligini yorug` va soya vositalarida ishlab chi-qish.

Tasvirdagi yorug`, soya, yarimsoya, reflekslar nisbatini topib, ular-nnng natura bilan mutanosibligi-ni ifodatash.

5. Rasmni umumlashtirish: or-tikcha jihatlarini yo'qotib, ton nisbatlarini tekshirish, kompozitsiya markazini bo'rttirib ko'rsatish.

SHunday qilib, haqqoniy rasm chizishning negizida naturaning xajmdor shaklini ko'rib idrok qi-lnsh va tasvirda uni ifodalay olish qobiliyati yotadi. Bu qobiliyatni ri-vojlantirish uchun turli mazmun-dagi bir qator natyurmortlar qo'-yib, ularni qalamda va bo'yoqlarda tasvirlab, mashq qilish zarur. Ma'lumki, bir nechta narsani birgalikda tasvirlash bitta narsani tasvirlashga qaraganda ancha qiyin. Bunda rasm ishlovchi odam oldida bir qator yangi vazifalar paydo bo'ladi. SHuning uchun dastlabki natyurmortlarni oldindan tanish bo'lgan, avval yakka o'zi tasvirlangan narsalardan tuzgan ma`qul. Masalan, gips kub bilan shar yoki tsilindrni devor yaqinida turgan stol ustiga qo'yib natyurmort tuzsa bo'ladi. Bunday natyurmortning afzalligi shundaki, gips oppoq bo'lganligi uchun geometrik jismlarning shaklini yaqqol ko'rish va ular misolida yorug`-soya va ton tushunchalarini uzlashtirish ancha osonlashadi. Ikkita geometrik jismdan bittasi qirrali, ikkinchisi esa yumaloq shaklda bo'lishi, ularning o'lchamlari, och-to'qlik darajasi va yorug` soyalarni taqqoslash uchun qulay. Ikkita geometrik jismni stol ustiga yonma-yon shunday qo'yish va yoritish kerakki, albatta birining soyasi ikkinchisiga tushib tursin. Buning uchun sun`iy yoritish manbaidan foydalanish lozim. Lampa natyurmortning yon tomonida, undan bir oz yuqoriqoda va

uzoqroqda joylashtiriladi, chunki juda yaqin tursa, soyalar o'ta quyuq ko'riniq qoladi, bu esa natyurmortning yaxlitligiga putur etkazadi. Narsalarning shaxsiy soyasi bilan, ulardan tekislikka va qo'shni narsaga tushuvchi soyaning farqini ko'rish, tushuvchi soyaning shakli uning qanday narsadan qanaqa sirtga tushayotganligiga bog`liqligini tushunish uchun ham gipsdan ishlangan geometrik jismlarni tasvirlab o'rganish qulay. Bunda fon ham alohida ahamiyatga ega, chunki uning vazifasi natyurmortning orqasidagi fazoni chegaralab, tasvirni osonlashtirishdir. Fon uchun o'rtacha to'qlikdagi sidirg`a, kul rang mato tanlanadai. U gips jismlardan to'qroq, lekin ulardan tushuvchi soyadan ochroq bo'lishi maqsadga muvofiq. CHunki fon juda to'q bo'lsa, predmetlarning yorug` tomonidagi yarim soyalarni idrok qilish va tasvirlash qiyin bo'ladi.<sup>31</sup>

Natyurmort ishlashda ma'lum nzchillikni saqlab, ketma-ket bosqichlar bilan ish olib borish, tasviriy san`at asoslarini o'rganish muhim. Birinchi navbatda, eng quyuq shaxsiny soyalar va tushuvchi soyalar qo-ralab chiqiladi, keyin yarimsoya va yorug`larni tasvirlashga o'tiladi. Lekin rasm chizishda predmetlar bo'laklarga ajratilib, oldin bir narsa to'liq chizib tugatilib, keyin ikkinchisiga o'tiladi, deb tushunish noto'g`ri. Aksincha, narsalar shaklining hajmdorligini ochib berish bir maromda davom ettirilib, natura bilan rasmni solishtirib boriladi. Narsalar shaklining hajmdor ekanligini butun tasvirda barobar olib borish kerak. SHundagina tasvirning yaxlitligi oxirigacha saqlanib qoladi.

YOrug`-soyalarni aniqlash paytida doimo narsalarning yorug`lik manbaiga nisbatan qanday masofada joylanishiga, sirtlarning qanday yorntilishiga qarab, ularni tegishli ohangda tuslash kerak bo'ladi. Ba`zi sirtlarga yorug`lik nurlari ko'proq tushganligi uchun u ravshan, ba`zilari esa qoramtil bo'lib ko'rindi. Narsa sirtining ravshanlik darjasini u bilan yorug`lik manbai orasidagi masofaga bog`liq yorug`lik manbai sirtidan qanchalik uzoqda bo'lsa, sirt shunchalik nursiz bo'ladi, aksincha, manba yaqin joylashsa yoritilish kuchli bo'ladi.

---

<sup>31</sup> Азимова Б. Натюроморт тузиш ва тасвирлаш методикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

YAna shuni hisobga olish kerakki, yoritgichga yaqinroq joylashgan narsalarda, uzoqroqdagiga nisbatan yorug` va soya ziddiyati keskinroq seziladi. Sirtlarning yoritilish darajasi yorug`lik nurlarinnng yo`nalishiga ham bog`liq. YOrug`lik nurlari sirtga to`g`ri burchak ostida, ya`ni tik yo`nalsa, bu sirt eng yorug` bo`lib ko`rinadi. YOrug`lik nurlari qiya-lab, sirtning yonidan utsa, unga yorug`lik kam tushadi va natijada u xiraroq bo`lib ko`rinadi. Undan tashqari, sirtlarning yoritilish darajasi ayni shu sirtning tuzili-shiga bog`liq; yaltnroq, silliq sirt yorug`likni ko`prok, tsaytaradn, g`a-dir-budur, qoramtil sirt esa ko`p-roq nurlarni yutib. oz qnsmini qay-taradn. SHularnnng hammasnnn hisobga olgandagina, natura bilan tasvir o`rtasida xaqnqiy o`xshash-likka erishish mumkin.

Rasm ishlashning yakunlovchi bosqichida natura bilan tasvirni yana yaxshilab takqoslab, umumlashtirib chiqish kerak. Buning uchun rasm ishlanayotgan taxta (planshet) ni naturaga yaqnnroq erga (yoniga emas) qo`yib, o`tirgan joydan har ikkalasiga tez-tez ko`z yuritib qarasa ham bo`ladi. Bunda ba`zi soyalar qorayib ketgan bo`lsa yoki natyurmortning yalpi ohangidan ajralib ko`rinib qolgan bo`lsa, ularni tuzatib, ref-lekslar juda ravshan bo`lib qolgan bo`lsa, bir oz xiralashtirib, natura bilan uning tasviri o`rtasnda to`la o`xshashlikka erishishga hara-kat qilinadi.

SHunday qilib, tasvirni natura bilan muttasil solishtirib borish, rasm chizishda ma`lum izchillikka amal qilish, asta-sekin u mumiy tas-virdan qismlar tasviriga o'tish tartibida olib borish va oxnrida yana yaxlitlashtirish natijasida natyurmortning haqqoniy tasvnri yuzaga keladi.

Endi ro`zg`or buyumlaridan nkki-uchtasini tanlab natyurmort qo`yib tasvirlab ko`ring. Dastlabki natyumortlarni shakli aniq, tuzilsh uncha murakkab bo`lmagan narsadan tuzing. SHakli, o`lchamlari, rangi (och-to`qligi) bir-biridan keskin farq qiladigan, lekin vazifaga unga o`xshash ikkita predmet tanlang. Eng muhimi, qo`ygan natyurmortningiz o`zingizga yoqadigan bo`lsin, shunda uni ishtiyoyq bilan tasvirlaysiz. Misol uchun bir necha ro`zg`or buyumlaridan natyurmort tuzib ko`ramiz: to`q jigar rang sopol ko`za bilan oppoq chinni kosa olib, ularni sidirg`a kul rang fonda qo`ying. Matoni devorga tarang tortib, mahkamlab qo`yasiz. Stol

ustiga esa och kul rang qog`oz yoki mato soling, shunda narsalardan tushuvch soyalarining shakli aniq ko`rinadi.

Birinchi navbatda, tanlangan narsalarni yagona maqsadga qaratilgan, guruh bo`lib ko`rinadigan qilib qo`yib olish vazifasi turadi. Ko`za bilan kosani stolning har xil joyiga qo`yib ko`ring va eng qulay kompozitsiyani izlang. Oldin ularni devor yaqiniga bir qator qilib terib qo`ying, keyin fondan goh uzoqlashtirib, goh yaqinlashtirib qarang. Qaysi holati sizga cha`qul bo`ldi? Buyumlar qatorlashib tursa, albatta, zerikarli ko`rlnadi. Ko`zani oldinga surib qo`ysak-chi? Bunda ham o`zingizga yoqmaydi. CHunki yirik narsa oldinda bo`lsa, kichikrog`ini bosib qo`yayotgandek tuyuladi. Endi ko`zani orqaga surib, kosani oldinroqqa siljiting-chi. Ana endi yaxshi ko`rindi, chunki oppoq kosa diqqatni birinchi bo`lib o`ziga jalb etib turibdi, undan keyin orqaroqdagi ko`zaga va oxiri fonga nazar tushadigan bo`ldi. Natijada fon bilan narsalar o`rtasida aloqadorlik paydo bo`lib, ularning fazoviy holati yaqqol ko`rindi. Natyurmortga qo`shimcha kiritiladigan yog`och qoshiqni shunday holatda qo`yingki, u har ikkala buyumni birbiri bilan mazmunan bog`laydigan bo`lib ko`rinsin. SHunda uchala narsa birgalikda yaxlit mazmundor grupper bo`lib gavdalanadi.

Endi uning yoritilish masalasini hal qilish kerak. YOrug`lik nurlari natyurmortga bir tomoidan tushadigan qilib, uning yon tomonidan yuqoriroqda reflektor o`rnatilsa, qo`yilgan narsalarning shakli yaqqol ko`rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko`zga tashlanib turadi.

Ma`lumki, narsalar silliq va g`adir-budur, yaltiroq va xira, tekis va notekis sirtli (fakturali) bo`ladi. Ularning qanaqa ekanligini natyurmortda ko`rsatishdan maqsad, qo`yilgan har bir narsaning shaklini va tuzilishiii aniq ochib berishdir. Masalan, idishlar har xil materialdan ishlangan bo`ladi: chinni, sopol, shisha, sirlangan yoki ruhlangan metallardan va hokazo. Bularning fakturasini tasvirlab ko`rsatish uchun alohida usullar qo`llanilmaydi, faqat ularning sirtidagi yorug`, yarimsoya, soya, refleks va bliklarning o`z o`rni to`g`ri topilsa bas. SHuni hisobga olish kerakki, shisha idishda uning tiniqligi tufayli, yaltirash, tovlanish, ayniqsa ko`p namoyon bo`ladi. Bularni tasvirlash bilan birga, naturaning yaxlit hajmdor shaklini ko`rsatish ham lozim bo`ladi.

Natyurmortlarning tarkibiy qismiga burmalangan matolar kirlitsangiz, mazmun ancha boyiydi. Tasvirda matolarning o'ziga xos tuzilishi, ulardagi tax va burma-larshshs-ts<sup>s</sup>hts orqali ifodalanadi. SHuning uchun rasmida ayni shu matoga o'xshashlikka erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li taxlarning shaklini yorug` va soyalar vositasida bat afsil ishlab chiqishdir. Dastlab natyurmortlarda dag`al, sidirg`a ma-teriallardan foydalanish, ulardan yirik burmali yaxlit taxlar hosil qilish mumkin, bu esa tasvirlash uchun qulay. Qeyinchalik, malakan-gpz ortib borishi bilan natyurmort-larni murakkablashtirib, mayin to'qilgan har xil matolardan tanlasangiz ham bo'ladi.

Natyurmortlarni asta-sekin murakkablashtirish darajasi narsalar sonining ko'payishi, ularning turli-tuman, rang-barang shakl va ulchovga ega bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi. Qo'yiladigan narsalar albatta, murakkabroq, yirik narsa bo'lishi va sirtlari har xil bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ularga shisha, chinni, metall idishlarni, turli, sidirg`a va gulli matolarni, amaliy san`at asarlarini, qog`oz o'ramlari va kitoblarni kiritish xilma-xil materiallarni aks ettirishni o'rganish uchun qulaylik yaratadi. Natyurmort tuzishda tajribasi yo'q odam ham qandaydir ichki hissiyoti asosida chiroyli haykalcha yoniga cho'yan qozon yoki guldondagi rang-barang gullar yoniga dazmol qo'yib tasvirlamaydi. Masalan, o'quv natyurmortiga konus shaklidagi hajmdor buyum sifatida chelak kiritilsa, uning yoniga aslo kitob yoki globus emas, balki supurgi, karton kuti yoki taxta yashik qo'yish o'rini bo'ladi.

Globusli natyurmortda esa tuldiruvchi sifatida bir dasta kitob, shishada siyoh va hokazolar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Murakkab natyurmortlar ustida ish olib borishning o'ziga xosligi, ularning kompozytsiyasini mukammalroq hal etishda, har bir narsaning shaklini atroflicha fikr yuritib aniqlashda, har bir narsaning sirtini (fakturasini) tasvirlab, uning materialini ko'rsata olishda namoyon bo'ladi. Unga kiradigan har bir narsaning shaklini perspektiv qisqarishlari bilan chizib olgach, ularning och-to'qliq darajalarini farqlagan holda asosiy soyalar qo'yib chiqiladi. Soyalar bir yula narsalarning tanasida, yotiq tekislikda, ustida va devorda belgilanadi. Bu esa tasvirda naturadagi kabi ton birligiga erishish va har bir narsaning o'ziga xos shaklini to'laroq ochib berishga imkon beradi. Narsalar

shaklini aniqlashtirib borib, tuslardagi nozik farqlarni topishda yuqorida aytilgan izchillikka rioya qilish kerak. YA`ni avval yirik shakllarni, katta qismlarni, matodagi asosiy burmalarni tasvirlash, so`ngra esa mayda-chuyda tafsilotlarni tasvirlashga o'tish kerak. Bunda chiziqlar albatta narsaning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklini bo'rttirib ko'rsatishi kerak. SHunday qilib, tasvirning hammasiga ishlov berilgach, uni natura bilan solishtirib qarash, noaniq erlarini yana ishlash, ton jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bartaraf etish lozim. Birinchi plandagi narsa uzoqroqda tuyulsa, uni yorqinlashtirish, aksincha, orqa plandagi narsa juda yaqqol ko'rinish qolgan bo'lsa, uni bir oz xiralashtirish lozim. Xulosa qilib shularni ta`kidlash joizki, natyurmortning tasviri ham uning postanovkaga qo'yilgan aslidek yaxlit taassurot qoldira olishi kerak. SHuning uchun uni mukammal darajaga kelitrmaguncha va yaxlit kompozitsion echimga olib kelmaguncha ishni shu tarzda davom ettirish kerak.

### **III BOB. TADQIQOT YUZASIDAN O'TKAZILGAN PEDAGOGIK TAJRIBA SINOV ISHLARINING TAXLILI**

#### **3.1. Kasb hunar kollejlari o'quvchilariga rangtasvirda natyurmort kompozitsiyasini tasvirlashga o'rgatish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi**

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga natyurmortni bosqichlarda ishslashga o'rgatish metodikasi mavzusidagi ushbu tadqiqotimizning yuqoridagi boblari tasviriy san`atning kelib chiqishining umumiy tarixi, xususan natyurmort kompozitsiyasining tuzilishi, uning qalam vositasida bajarilishi haqida fikr yuritgan edik.

Mazkur bob o'quv natyurmortining rangtasvirda bajarilishi bo'yicha tavsiyalar, natyurmort ishslashning metodik izchilligiga qaratilgan.

Ma'lumki, har qandan tasvirni yaratishda yorug`-soya katta ahamiyatga ega. SHu bilan birga shakllarni tasvirlashda ranglar ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Grizaylda bir rang bilan tasvirning faqatgina shaklning tus jihatidan och-to'qligi bilan ifodalansa, rangtasvirda esa rang barcha sifatlari bilan namoyon bo'ladi. Rassom hayotda bor ranglardan uyg`un birikmalar tuzadi, bir qator ranglarning birgalikda hamohang bo'lib ko'rinishiga erishadi.

Bu masala natyurmort ustalari asarlarida qanday hal qilinishini ko'rish uchun yuqorida keltirilgan misol va namunalarni kuzatamiz. Rang kompozitsiyasining ahamiyatini yaxshiroq tushunish uchun taniqli rassom 3. Kovalevskayaning natyurmortini tahlil qilamiz. Natyurmortda asosiy ob`ekt mevalar. Ular hamma erda, stol ustidagi dasturxon, likopcha ichida, vazada va deraza tokchasida. Natyurmort butunlay bir-biriga zid ranglarning taqqoslanishiga asoslangan: stol orqasidagi ko'kimir devor, undagi surat, deraza romi va dasturxonidagi havo rang tuslar, to'k binafsha uzum boshi birgalikda likopcha, olmalar va guldonning iliq rangiga qarama-qarshi olingan.

Asarning rangtasvir markazini ochiq qizil likopcha ichida jigarrang guldon fonida tovlanib ko'rinyotgan olma tashkil etgan. Uning zarg`aldoq-sariq rangi bilan to'rxaltaning yorqin zangori rangi o'rtasida qarama-qarshilik, ayniqsa aniq sezilib turibdi. Birinchi plandagi dasturxon hoshiyasining qizil yo'llari olmalarning sarg`ish-yashil tuslarining kontrast ranglari bo'lsa, orqa planda ham olmalarning iliq

rangi, uzum boshining ko'kimir binafsha rangiga qarama-qarshi qo'yilgan. Natyurmortdagi qolgan rang tuslari ham rang kontrasti asosida tanlangan.

Natyurmortning umumiyl kompozitsiyasi echimida bitta rangning bir tekisda ritmli takrorlanishi ham e'tiborga loyiq. Rassom bu masalani hal qilishga ustalik bilan yondashgan. Natyurmortda sarg`ish yashil olmalarni oppoq dasturxonda ham, vaza ichida ham, deraza tokchasida ham ko'ramiz. Zarg`aldoq sariq rang ham bir necha marotaba takrorlangan, u dasturxon hoshiya-sida, likobcha va derazadagi olmalarda mavjud. Bu turli-tuman sarg`ish yashil, zarg`aldoq zangori va oq tuslarning uyg`unligi natyurmortning rang kompozitsiyasini tashkil qilgan. Ranglar o'rtasidagi aloqadorlik tufayli alohida-alohida narsalar birlashib, chambarchas bog`langan gruppa holida gavdalangan. Rassomning surat kompozitsiyasini juda puxta o'ylab qurbanligi ko'rinish turibdi. SHu bilan birga hamma narsa juda oddiy va tabiiy tuyuladi: kimdir mevalarni hozirgina bozordan olib kelgan-u, joylab qo'yishga vaqt bo'lmay, vaqtincha shunday qoldirgan, deb o'ylash mumkin. Badiiy asarning qiymati ham xuddi shundaki, uning sodda va tabiiy ko'rinishi orqali hayotiy haqiqatni ifodalay olishida.

E'tibor berib qarasangiz, namuna sifatida olingan ijodiy natyurmort asarlarining ko'pchiligi ranglari bir-biriga yaqin buyumlardan tuzilgan bo'lib, ularni taqqoslash uchungina kontrast rangli buyumlar kiritilganligini ko'rasiz. Fon va stol ustidagi matolarning rangi ham predmetlar rangi bilan uyg`unlashadigan qilib tanlangani uchun bu natyurmortlar nafis va maftunkor chiqqan. Rangtasvirda ranglar kompozitsiyasi moxiyatini tushunish maqsadida sifatli natyurmort asarlaridan nusxa ko'chirish, rassomlarga taqlid qilib, ularning ish uslublarini o'rganish foydali. Biroq nusxa ko'chirishni, albatta naturani o'rganish bilan birga qo'shib olib borish kerak.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga o'quv natyurmorti bilan ijodiy natyurmortning maqsadi va vazifalari boshqa-boshqa bo'lsa-da, ular mazmunan yaqin ekanligini doimo tushuntirib borish lozim. Har ikkala ish turi uchun ham kompozitsyaning ifoda asoslari bir xil. Bular tasvir formati asarning asosiy g`oyasiga bo'ysundirilishini, formatga nisbatan tasvirning o'rni va o'lchamini aniqlash hamda buyumlarning fazo-viy holatini tasvirlashni taqozo qiladi.

Natyurmortning jonli tuzilishi ifoda vositalarining (tus, yorug`-soya, rang, qarama-qarshilik, ritm) o'rinli qo'llanishiga bog`liq.

Bo'yoqlar bilan ishslash uchun qo'yishda, oldinroq qalam bilan va bir ranglar bilan tasvirlash jarayonida o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash lozim. Natyurmortdagi buyumlarning tashqi ko'rinishini, rang-barang sifatlarini ifodalash ancha murakkab ish bo'lib, uni o'zlashtirish uchun izchillik bilan murakkablashib boradigan mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Quyida biz misol tariqasida Respublika rassomlik kolleji o'quvchilarini tomonidan bajarilgan rangtasvir etyudlaridan bir nechtasini tahlil qilib o'tamiz. Bu kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga o'quv natyurmortining mashq jarayonida tasviriy san`at asoslarini endi o'rganayotganlar ishi bilan solishtirib ko'rish, muntazam ravishda izlanish natijasida bilim va malakalar orttirish uchun imkoniyat yaratadi.

Albatta, o'qish, o'rganish maqsadida bajarilgan bu etyudlar akvarel va moybo'yoq texnikasining hamma tomonlarini aks ettira olmaydi, lekin mustaqil ishda yo'naltiruvchi kuch bo'lib xizmat qilishi, ma'lum xulosaga kelish imkoniyatini yaratishi mumkin. Muhimi, har gal natyurmortning yangi-yangi tomonlarini ko'rishga intilish, ishga astoydil berilib, shakli va ranglarning ifoda usullarini mukammallashtirib borish uchun xizmat qiladi.

Dastlabki natyurmortlar uchun tuzilishi sodda, yaltiroq bo'limgan, rangi aniq narsalar tanlansa, ularda rang va tus munosabatlarini tushunish oson bo'ladi.

O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga rangtasvirda natyurmort kompozitsiyasini tasvirlashga o'rgatish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi yuzasidan birinchi bosqichda (2013-2014 yillar): tadqiqot mavzusiga oid tajriba sinov ishlarini tashkil etish hamda o'quvchilarning natyurmort ishash malakalarini o'rganish va tahlil qilish, etakchi pedagoglar ish tajribalari bilan tanishish, o'quv jarayonini kuzatishni yo'lga qo'yildi. Tadqiqot mazusi bo'yicha metodik yo'l-yo'riqlar ishlab chiqildi.

Respublika rassomchilik kollejida o'tkazilgan tajriba sinov ishlarining taxlili shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi ishlab chiqilgan amaliy mashg`ulotlar

davomida biz 1-bosqich o'quvchilari bilan rangtasvir mashg`ulotlarini kuzatib quyidagi xulosalarga keldik.

O'quv mashg`ulotlarini tashkil etishda natyurmort qo'yilmalarini tuzish va ularni o'quvchilarining amliy ishslash jarayonini tajriba va sinov guruhlarida tashkil etildi. Quyida birichi bosqich lalabalari bilan olib borilgan tajriba sinov ishlari jadvali keltirilgan:

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga natyurmortni ishslashga o'rgatish metodikasi yuzasidan tajriba-sinov natijalari (1 bosqich)

1-jadval

№	Milliy buyumlardan tashkil etilgan natyurmortni bosqichlarda ishslash metodikasiga oid vazifalar	Javoblar salmog`i (foiz hisobida)	
		Dastlabki bosqich	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	I –bosqich. Qog`oz formatini to'g`ri tanlash	42,2 %	37,3%
	II –bosqich. SHakllarning nisbatlarini aniqlash va kompozitsion to'g`ri joylashtirish.	37,3% 44,4%	45,3% 50,9%
	III –bosqich. CHiziqli konstruktiv qurish	35,2%	35,8%
	IV –bosqich. Dastlabki engil ranglar berish	50,4%	49,4%
	V –bosqich. YOrug`-soya munosabatlarini aniqlash va vazifani yakunlash	49,7%	44,4%

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etilgan guruhlarni aniqlangandan so'ng, o'quvchilarining ijodiy malakalarini bilish maqsadida biz nazorat guruhlari uchun natyurmort kompozitsiyasini tasvirlashga qaratilgan 4 ta mashq bajarish bo'yicha metodik ishlanmani o'quvchilarga tavsiya etdik va sinovdan o'tkazdik.

### **Birinchi mashq.**

Oddiy sopol idish (ko'za, xumcha) olib, yoniga kichikroq chingni kosacha qo'yiladi. Natyurmortni rang jihatdan boyitish maqsadida uning yoniga meva va sabzavotlar qo'ysangiz ham bo'ladi. Fon sifatida sidirg`a kul rang mato tanlang. Natyurmortga yorug`lik yonidan bir oz oldindan tushadigan qilib, deraza yaqiyidagi stol ustiga qo'ying, har bir narsaning shakli yaqqol ko'rinsin. Natyurmort tuzishda

birmuncha tajriba orttir-ganiningizni hisobga olib, narsalarni tekislikda joylashtirishni o'zingizga havola qilamiz.

Dastlab bajariladigan ijodiy ishning *Etyudi*<sup>32</sup> *ishlab olinadi* Natyurmort rangtasvirini boshlashda oldin naturani yaxshilab kuzating. Dastavval natyurmortning hammasiga ko'z tashlab, uning yaxlit ko'rinishini kuzating.

Mana shu birinchi taassurotni xotirada saqlash juda muhim. CHunki u keyinroq, har bir narsani tafsilotlari bilan ifodalash bosqichida, buyumlar o'rtasidagi bog`lanishni tasvirlashni osonlashtiradi. Keyin har bir narsani alohida-alohida, mukammal tahlil qilib chiqing. Jigar rang ko'za och kul rang fonda ko'zga yaqqol tashlanadi. Uning rangi soya qismda ancha to'qlashib ko'rindi. Ko'zaning yorug` qismida ham rang bir tekisda tarqalmagan, eng yorug` joyda rang ochiq ko'rini, chekkalarida rang tusi o'zgargan. SHu kabi kuzaning bo'yniga va tubiga yaqin joylarda ham rang tuy o'zganganligiga e'tibor bering. Ko'zaning ichi qoramtil ko'rindi va undagi tuslar ko'zaning sirgidagidan farq qiladi. Diqqat bilan ko'zani faqat jigar rang bo'yoq bilan bo'yab qo'yish mumkin emasligini tushunasiz. Uning rangini ifodalash uchun qandaydir omixta rang topish kerak. Oshqovoq po'chog`ining nursiz, yashiltob sariq tusini, uning qirqilgan qismida (ichida) ko'ringan ochiq qovoqni solishtirib qarasangiz, ular o'rtasidagi farqni ko'rasiz.

Natyurmort kompozitsiyasini hal qilish, formatni aniqlash va postanovqani yana tekshirish uchun qalamda bir nechta xomaki rasm chizib ko'ring. Kompozitsyaning eng qulay variantini topish va natyurmort bitganda qanaqa ko'rinishini tasavvur qilish maqsadida kompozitsiya izlash moslamasidan foydalaning. Qalamda eskiz ishlash bilan birga, bo'yoqlarda uncha katta bo'limgan rangli eskizlar ishlab, rang bo'laklarining uyg`unligini amalda sinab ko'rsangiz bo'ladi.

SHundan keyin natyurmortni asosiy formatda tasvirlashni boshlash mumkin. Har galgidek engil chiziqlar bilan narsalarning o'rnini va hajmdor shaklini belgilab chiqing. Unutmang, chiziqli rasmning savodli bajarilishi rangtasvirning

---

<sup>32</sup> Этюд (французча) Хомаки расм.

muvaqqatiyatlari chiqishi uchun asos bo'ladi. CHiziqli rasmni bitkazib, natura bilan taqqoslab tekshiring, xatolarini tuzating.

Akvarel bo'yoqlar bilan tasvirlashni eng och ko'rinishi turgan fondan boshlash kerak. Uning tusini topib, palitrada sinab ko'ring. Kuzaning rangini fonga nisbatan qanaqa ko'rinishini aniqlab, uning yorug` qismidagi rang tusini palitrada qorishtirib toping va xo'l mo'yqalam bilan o'z o'rniga qo'ying za keyin ko'zaning soya qismidagi rang tusini aniqlang. Oldingi qo'yilgan mazoklar qurib qolmasan keyingilarini tez topib qo'ysangiz, ko'za sirtida yorug`dan soyaga mayin o'tishi ta'minlanadi. Ko'zaning tsolgan rang tuslarini ham palitrada topib, eng och va eng to'q qismlarini taqqoslab, shakliga monand mazoklar bilan chizishga harakat qiling.

Keyingi bosqichda ko'zaning va boshqa narsalarning shaklini mu-kammal ishlab chiqasiz. Rangning asta bir tusdan ikkinchisiga o'tishi, yorug`lik nurlarining buyum sirtiga turlicha tushib, har bir bo'lakni turlicha yoritishiga bog`liq. Etyudni ishlab tugatganingizdan keyin, undan bir oz uzoqlashib, tasvirni butunligicha natura bilan solishtirib, tekshirib chiqing.

### **Ikkinch mashq**

Yuqorida aks yorug`liklar (reflekslar) haqida fikr yuritgan edik. Narsalarning soya qismidagi narsalarda akslanib, ularning rangiga bo'yilib ko'ringan shu`la refleks deb atali-shini bilasiz. Reflekslar oq narsalarda juda ravshan ko'rinish turishini hisobga olib, rangtasvir programmasiga oq narsalardan (gips ornament, oq qog`oz o'rami, gips maska va hokazo) natyurmort tuzib tasvirlash kiritilgan. Bu topshiriqlar mashg`ulot paytida bajariladi.

Bilim va malakalarni mustahkamlash uchun uyda oq narsalardan 2—3 tasini qo'yib tasvirlash lozim. Fon sifatida ochiq rangli yashil, zangori, och sariq yoki zarg`aldoq mato tanlang. Natyurmortning yon tomoniga ham shu matodan tortib qo'ysangiz bo'ladv. Stol ustiga och kul rang qog`oz yoki mato yoyib qo'ying. Natyurmortnn o'rnatib olganingizdan keyin har galgidek, uni yaxshilab kuzating. Natyurmortning orqasidagi va yonidagi matoning boshqa rangdagisini qo'yib qarasangiz, reflekslarnnng o'zgarishini yaqqol ko'rasiz. Bunda siz qiziq xodisaning shohidi bo'lasiz. Foning rangi sovuk (yashil, zangori) bo'lganda, oq narsaning

yoritilgan qismi iliq tusda ko'rinadi, fon iliq bo'lganda esa (zarg`aldoq, och sariq) yorug`sovuk. tusda bo'ladi. Bu hodisaning negi-zida rang qarama-qarshiligi yotadi. lekin u faqat narsaning yorug` qis-midagina yuzaga keladi. Narsannng soya qismida esa foning rangidagi refleks ko'rinadi. Natijada natyurmortdagi har bir narsada birbiriga zid rang birikmalari kuzatiladi. Rangli reflekslar shunchalik tuslansa ham, baribir, oq narsaning o'zi oqligicha qoladi, uni tasviri ham oppoq tuyulishi uchun refleksning tusi uni hosil qilgan sirtning rangidan ancha och va nursiz bo'lishini hisobga olish zarur.

### **Uchinchi mashq**

Stol sathi natyurmortning ajralmas qismidir. Fon natyurmortda fazoviylikni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga pos-tanovkaning umumiy rangiga ham ta`sir etadi. Natyurmortdagi har xil rangli narsalar yonida u turli tuslarda ko'rinishi, narsaning rangi bilan bog`liq holda u goh iliqroq, goh sovuqroq bo'lishi mumkin. Fonga predmet tekisligi va har bir narsaning rangi ta`sir etadi. SHuning uchun fanni bir tekis qilib, bir xil bo'yoq eritmasi bilan bo'yab qo'yish noto'g`ri. Fanni haqqoniy tasvirlash uchun mazoklarni kerakli yo'nalishda qo'yish lozim. Narsalarga nisbatan uzoqroqda joylashgani uchun foning rangi hamisha xiraroq, siporoq ko'rinadi, uning rangini birinchi plandagi narsalar bilan, stolning old qis-mi bilan muntazam ravishda taqqoslab borish kerak.

Stol sathining ham umumiy rang kompozitsiyasida ahamiyati katta, ya`ni tasvirida makонни ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Uning rangi ham narsalar sirtida rangli shu`lalar hosil qiladi, shuning uchun rangi qanaqa (oq, qora, sariq, qizil va hokazo) bo'lishi katta ahamiyatga ega. Natyurmortda narsalarning turli masofada joylashganligi tasvir ravshanligiga katta ta`sir etadi. YA`ni uzoqroqda yorug` va soyalarning ziddiyati susayadi. Buning farqiii ko'rish uchun stolning old sathini va birinchi plandagi narsani orqa plandagi narsa va fon bilan taqqoslab qarash kerak.

Och rangli qumg`onning yorug` tomonida fon to'qroq, soya qismi yonida ochroq ko'rinyapti. Och qizil rangli pomidor esa xavo rang qumg`on fonida ko'zga tashlanib turipti. Och va to'q ranglar qarama-qarshiligi asosida natyur-mortning umumiy rang kompozitsiyasi hal qilingan.

Biz ishlab chiqqan metodik tavsiyalar va natyurmort kompozitsiyasini ishlashda o'quvchilarining nafaqat amaliy malakalarini aniqlash balki, nazariy jihatdan ko'nikmalarini shakllantirilganda ularda natyurmortni metodik bosqichlarda ishlash malakalari yuqori bo'lishligini ko'rshimiz mumkin. Quyidagi jadvalda nazorat va tajriba guruhlarida ikkinchi bosqich natijalari ko'rsatilgan. Ikkinci bosqich (2013-2014 yillar).

2-jadval

№	Uy jihozlaridan tashkil etilgan natyurmortni bosqichlarda ishlash metodikasiga oid vazifalar	Javoblar salmog`i (foiz hisobida)	
		Dastlabki bosqich	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1.	I –bosqich. Qog`oz formatini to'g`ri tanlash	62,5 %	77,3%
	II –bosqich. SHakllarning nisbatlarini aniqlash va kompozitsion to'g`ri joylashtirish.	45,3%	75,3%
	III –bosqich. CHiziqli konstruktiv qurish	55,6%	85,9%
	IV –bosqich. Dastlabki engil ranglar berish	50,4%	89,6%
	V –bosqich. YOrug` -soya munosabatlarini aniqlash va vazifani yakunlash	59,7%	94,3%

Olingen natijalar va tadqiqotni yanada faollashtirish, muhim xulosalar chiqarish natijalarini yanada kengroq tahlil etish uchun biz kasb-hunar kollejlari uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz.

### Xulosa

Tadqiqot muammosining nazariya va amaliyotdagi ahvolini o'rganish yuzasidan olib borilgan ishlar shuni ko'rsatadiki, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni natyurmort ishlashga o'rgatish hamda malakali kadrlar tayyorla bugungi kun talablar darajasida emasligini ko'rsatdi. Tasviriy san`atning eng rivojlangan janrlaridan biri bo'lган natyurmort keljak avlodni estetik jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. U yoshlarning san`at asarlarning mazmunini ochib berishda ko'maklashuvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. Ushbu janr oddiy buyumlarning rassom polotnosida qanday tarzda namoyon

bo'lishi, tilga kirib, asar mazmunini osongina o'qilishiga, rassomning ichki dunyosi, voqeа qachon, qaerda sodir bo'layotganini bilib olishga yordam beruvchi janrdir. Ushbu bobda natyurmort kompozitsiyasi, unda qalamtasvirning rolining muhimligi ochib berilgan. Natyurmort kompozitsiyasini ishlashda quyidagi masalalarga e`tibor berish lozim:

Bunga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

1. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni natyurmortni ishlashga o'rgatish xamda bunday mashg`ulotlarda metodik bosqichlardan foydalanish bo'lajak mutaxassis kadrlar tayyorlashda katta ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

2. O'quv dasturlarida ta`lim oluvchilarda boy estetik dunyoqarashni shakllantirish, o'quvchilarni badiiy-ijodiy faoliyatlarini turli yo'llar bilan rivojlantirishga doir ko'rsatmalar qayd qilinganiga qaramasdan bu borada maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan, ilmiy asoslangan metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

3. Tasviriy san`at o'quvchilarining natyurmortni bosqichlarda ishlash xaqidagi tasavvurlari pastligi o'quvchilarning estetik tarbiyalanganlik darajalari, estetik didlari va idroklarining qoniqarsiz ahvolda bo'lishiga olib kelmoqda.

4. Tadqiqot muammosining qoniqarsiz ahvolda ekanligining sabablaridan yana biri o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni natyurmort ishlashga o'rgatish borasida alohida adabiyot yaratilmagan

5. Tadqiqot muammosining qoniqarsiz ahvolda ekanligining sabablaridan yana biri o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni natyurmort ishlashga o'rgatish borasida alohida adabiyot yaratilmagan

yoshlarga natyurmort san`atning kishilar madaniy hayotidagi o'rnini tushuntirish;

- natyurmort kompozitsiyasi ishlaganda uning qonunlariga rioya qilish;
- natyurmort naturasining tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, ranglariga qat`iy rioya qilish;
- har qanday narsa asosida u yoki bu geometrik shakl yotishini shu jumladan natyurmortga qo'yilgan buyumlarda ham;

- tasvirlashda ufq chizigini chizib aniqlab olish va ko'rish nuqtasiga rioya qilishi.

BMIdagi sohaga oid tayanch  
so'zlarning o'zbekcha - inglizcha lug`ati

- |  |  |
|--|--|
| 1. Akvarel - water-color                 | 21. Realizm - realism                        |
| 2. Qizil - scarlet                       | 22. Qalamtasvir - drawing                    |
| 3. Anatomiya - anatomy                   | 23. Ritm - rhythm                            |
| 4. Applikatsiya - applique               | 24. Rozetka - rosette                        |
| 5. Arxitektor - architect                | 25. Simmetriya - symmetry                    |
| 6. Maktabdan tashqari – out of<br>school | 26. Siluet - silhouette                      |
| 7. YOrug`lik – patch of light            | 27. Haykaltarosh - sculptor                  |
| 8. Tik – vertical lineeya - gallery      | 28. Ijodiy – creative– aesthetic             |
| 9. Ufq - horizon                         | 29. Anatomiya - anatomy                      |
| 10. Janr - genze                         | 30. Qadimgi - ancient                        |
| 11. Rangtasvirchi - painter              | 31. Istedod - genius                         |
| 12. Tasvir – representation, picture     | 32. San`at - art                             |
| 13. Interer - interior                   | 33. Miniatyura - miniature                   |
| 14. Qalam - pencil                       | 34. Suratlar galereyasi – picture<br>gallery |
| 15. Asar - picture                       | 35. Tasavvur qilmoq - imagine                |
| 16. Obraz – shape, form                  | 36. Ko'rgazma – exhibition                   |
| 17. Ob`ekt - object                      | 37. Oliy ta`lim - education                  |
| 18. Oxra - ochre                         | 38. Illyustratsiya - illustration            |
| 19. Portret - portrait                   | 39. Muasasasa - office                       |
| 20. Praktika - practice                  | 40. Rassom - painter                         |

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Ta`lim to'g`risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni. // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: SHarq, 1997.-20-29 b.
- 2.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: SHarq, 997.-34-63 b.
3. Umumta`lim maktablarida tasviriy san`at ta`limi kontseptsiyasi. –Ma`rifat, 1992 y. 5 sentyabr.
4. Umumiyl o'rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang`ich sinflar. Tasviriy san`at.-Toshkent: SHarq, 1999.-218-257 b.
5. Avesyan O.A. Natura i risovanie po predstavleniyu. – Moskva: Izoiskusstvo, 1985. -151 s.
- 6 Azimova B. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1984.-56 b.
7. Arzyamova G.V. Edinstvo nравственности и эстетического воспитания учащихся первых классов в учебно-воспитательном процессе. Atoref. dis. . . . kan.ped.nauk- Moskva, 1983.-16. s.
8. Baymetov B., Tolipov N. Maktabda tasviriy san`at to'garagi.-Toshkent: O'z TSMU, 1995.-47 b.
9. Valiulina N. Ro'zi Choriev.- Tashkent: /ofur /ulom, 1983. -95 s.
10. Veymarn B.V. Jivopis molodых xudojnikov Uzbekistana.-Tashkent: Tvorchestvo, 1985. -76 s.
11. Voprosy teorii esteticheskogo vospitaniya Sb. nauch. MTU. Pod. Red. G.Z. Apresyana.-Moskva: MGU, 1970. -.110 s.
12. Voprosy esteticheskogo vospitaniya. Vo'p. 3. –Tashkent: UzNIIIPN, 1977. -47 s.
13. Vygotskiy P.S. Voobrajenie i tvorchestva v shkolnom vozraste. -Moskva. Gosizdat, 1930. -80s
14. Davletshin M.G. Ta`limning psixologik asoslari.-Toshkent: O'qituvchi, 1978.- 20 b.

15. Davletshin M.G. Formirovanie sposobnostey shkolni-kov.-Tashkent: O'qituvchi, 1965. -.96 s.
16. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asos-lari.-Toshkent: O'qituvchi, 2004.-160 b.
17. Iskusstvo Uzbekistana. 1917-1972 g.-Moskva: Sov. Xudojnik, 1976. -60 s.
18. Karimov X. O'rol Tansiqboev.-Toshkent: YOsh gvardiya, 1978.- 186 b.
19. Karimov X. Tabiat kuychisi. (O'rol Tansiqboev).-Toshkent: /ofur /ulom, 1970. -115 b.
20. Kuzin V.S. Osnovы obucheniya izobrazitelnomu iskusstvu v obsheobrazovatelnoy shkole. -Moskva.: Prosveshenie, 1972.- 270 s.
21. Kuzin V.S.Psixologiya. 2-e izd., pererab. dop.-Moskva: Vo'sshaya shkola, 1982.- 256 s.
22. Kuzin V.S. Voprossh izobrazitelnogo tvorchestva.-Moskva: Prosveshenie, 1971. -144 s.
23. Leonardo da Vinci. Kniga o jivopisi. – Moskva, 1934. -382 s.
24. Luk A.N. Mo'shlenie i tvorchestvo.-M.: Politizdat, 1976. -144 s.
25. Lukonin V.G. Iskusstvo Drevnego Irana, Kavkaza i Sredney Azii.- Leningrad, 1971. -32 s.
26. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-Toshkent: O'zbekiston, 2001.-76 b.
27. Nabiev M. Rangshunoslik.-Toshkent: O'qituvchi, 1996.-39 b.
28. Normatov N. Poeticheskie metodiki Gafura Kadыrova. //San`at.-2004. - №2. -24-25 s.
29. Onishuk.V.A. Urok v sovremennoy shkole.-Moskva: Prosveshenie, 1986. – 160 s.
30. Oydinov N. Rassom o'qituvchilar tayyorlash muammolari.-Toshkent: O'qituvchi, 1997. -215 b.
31. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san`ati tarixidan lavhalar.-Toshkent: O'qituvchi, 1997. -126 b.

## RASMLI ILOVALAR



